

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK:**

ATAJANOV SARVAR SAMANDAROVICH

G‘AFUR G‘ULOM VA XALQ OG‘ZAKI IJODIYOTI

10.01.09 - Folklorshunoslik

**Adabiyotshunoslik akademik darajasini
olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar filologiya fanlari nomzodi,

dotsent G.O. Eshchanova

Urganch – 2013

MUNDARIJA

Kirish.

I BOB G‘afur G‘ulomning folklorshunoslik faoliyati.....	6
1.1.G‘afur G‘ulom va xalq ijodkorlari.....	6
1.2. G‘afur G‘ulom folklor janrlari haqida.....	12
II Bob G‘.G‘ulom she‘riyatida folklor an‘analari.....	27
2.1.Shoirning xalq iboralaridan foydalanishdagi mahorati.....	27
2.2.Adib she‘riyatida paremik janrlar va olqish hamda qarg‘ashlardan foydalanish tamoyillari	36
III Bob G‘afur G‘ulom nasri va xalq og‘zaki ijodiyoti.....	42
3.1. “Shum bola”qissasi va xalq ijodiyoti.....	42
3.2. Yozuvchi hikoyalarida folklor an‘analari.....	51
Umumiy xulosalar.....	71
Adabiyotlar.....	73

Kirish

Mavzuning dolzarbligi

XX asr o'zbek adabiyotining yuksalishiga salmoqli hissa qo'shgan adiblar anchani tashkil etadi. Ularning badiiy va ilmiy ijoddagi o'rnini belgilash, ayniqsa badiiy ijodining xalqchilik negizlarini yoritib berish adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurt hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtiros azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.¹

O'zining haqqoniy so'zi va chuqur ma'noli asarlari bilan xalq ehtiromiga sazovor bo'lgan talantli adiblardan biri G'afur G'ulomdir.

G'afur G'ulomning ijodi nihoyatda ko'p qirralidir. U badiiy ijod bilan ilmiy ijodni birga qo'shib olib borgan adibdir. Uning mumtoz adabiyot, ayniqsa, folklorshunoslik sohasida bildirgan mulohazalari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Shunday ekan buyuk yozuvchining folklorshunoslik va folklordan o'rganish sohasidagi izlanishlarini tadqiq qilish, adib badiiy ijodining xalqona ildizlarini ochib berish har tomonlama ahamiyatga ega bo'lib, ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti

Tadqiqot tahliliga asos qilinib G'afur G'ulom tanlangan asarlarining 3, 8, 9, 10-tomlari va "Shum bola" qissasi, "Gilos danagidan tashbehlar" hikoyalar to'plami tanlab olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

G'.G'ulomning folklorshunoslikka qo'shgan hissasi va she'riy hamda nasriy asarlarida folklor an'analarga murojaat qilishini to'laqonli va atroflicha o'rganish, uning o'ziga xos qirralarini ochib berish ishning maqsadini tashkil eiadi. Uni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar tanlab olindi:

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009 yil, 3 iyul.

-Adibning folklor ijrochilari haqidagi maqolalarini tadqiq qilish;

-Ijokorning folklor janrlari haqida bildirgan fikrlarini yoritish;

-Adibning nasriy asarlarida ko'zga tashlanadigan oddiy va sintezlashgan folklorizmlarni tahlil qilish;

-Shoirning she'riy asarlaridagi folklor an'analarini yoritib berish;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari

1. G'.G'ulom ijodini xalq og'zaki ijodiyoti bilan qiyosiy o'rganish uning asarlarining ro'yobga chiqish jarayonlarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.
2. Adibning nasriy asarlarida uchraydigan sintezlashgan folklorizmlarni yoritib berish xalq ijodiyoti bilan yozma adabiyotning azaldan bir-birining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib kelayotganini isbot qilishda yordam beradi.
3. Shoir poeziyasidagi folklorizmlarni tadqiq qilish, o'zbek poeziyasining bundan keyingi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish xususiyatiga ega.
4. Yozuvchining folklorshunoslik borasidagi ilmiy-nazariy ishlarini yoritib berish uning yirik nazariyotchi olim ekanligini isbot qilish imkoniyatini yaratadi.
5. Yozuvchi asarlariga folklorning ta'sirini o'rganish adib ijodidagi yumoristik tasvirning genetik ildizlarining paydo bo'lishini aniqlashda muhim manba bo'la oladi.

Mavzuning o'rganilishi

G'afur G'ulomning hayoti va ijodi masalasi ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan har tomonlama chuqur o'rganilgan.

Adabiyotshunos olimlardan H.Yoqubov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Shukurov, A.Akbarov, J.Tursunov va boshqalarning ishlarida adib ijodining turli qirralari, uning she'riy va nasriy asarlarining poetik tuzilishi, obrazlari xususida ko'plab yangi fikrlar bildirilgan.² Shu bilan birga, shoirning folklorshunoslik va folklordan foydalanish sohasidagi ijodiy tajribalari keng va to'laqonli o'rganilmagan. Bizning tadqiqotimiz adabiyotshunoslikdagi ana shu bo'shliqni to'ldiradi.

² Yoqubov H. G'afur Fulom (hayoti va ijodi) T.: "Adabiyot va san'at" 1959. –B.138; Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. –T.: 1963. Mamajonov S. G'afur Fulom prozasi. –T.:1966.; Mamajonov S. Uslub jilolari. –T.: 1972; Shukurov N.F. Fulomning lirik poeziyasidagi mahorati. –T.: 1966; Akbarov A. Shoirning hayoti. –T.: "Adabiyot va san'at". 1978. Tursunov J. Shum bola bilan yangi uchrashuv // "Sharq yulduzi" jurnali, 1963. 147-bet.

Tadqiqot metodlari.

Dissertatsiyaning metodologik asosini milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi, Prezidentimizning milliy g'oya, ma'naviyat va adabiyot masalalariga bag'ishlangan asarlari hamda shu sohada yaratilgan ishlar tashkil etadi.

Shuningdek ishda H.Yoqubov, S.Mamajonov, N.Shukurov, O.Sharafiddinov kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlariga ham tayanildi.

Ishda qiyosiy –tarixiy va tipologik metodlardan foydalanildi.

Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Mazkur dissertatsiya Urganch davlat universiteti o'zbek adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati

Dissertatsiyadagi tahlil va xulosalar o'zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligi tarixini yaratishda, tanlama fanlarni o'qitishda, akademik litsey va kolledjlarda o'zbek adabiyoti va xalq ijodiyoti predmetlarini o'qitish jarayonida foydalanilishi mumkin.

Ilmiy yangiligi

G'afur G'ulom faoliyatining uch qirrasi-xalq ijodiyoti bo'yicha tadqiqotlari, nasriy asarlarining folkloriy asoslari shuningdek, she'riy asarlaridagi folklorizmlar ilk marotaba istiqlol mafkurasi asosida o'rganildi.

Ishning sinovdan o'tishi.

Dissertatsiya ishi o'zbek adabiyoti kafedrası ilmiy seminarida muhokamadan o'tgan. Shuningdek, talabalarning an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza sifatida taqdim etilgan.

Natijalarning e'lon qilinishi.

Dissertatsiya asosiy mazmuni o'nta maqolada o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi.

Dissertatsiya kirish va xulosadan tashqari uchta bobdan tashkil topgan bo'lib, oxiriga adabiyotlar ro'yxati ilova etilgan. Umumiy hajmi ____ sahifadan iborat.

I BOB

G‘AFUR G‘ULOMNING FOLKLORShUNOSLIK FAOLIYATI

1.1.G‘afur G‘ulom va xalq ijodkorlari.

Buyuk iste’dod egasi bo‘lgan G‘afur G‘ulom ajoyib shoir, mashhur nasr ustasi, dramaturg bo‘lishi bilan birga teran fikrlovchi olim hamdir. Ayniqsa, uning xalq ijodiyoti sohasida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir.

Talantli adib G‘afur G‘ulom o‘zining sermazmun hayoti davomida hamisha xalq ijodiyoti bilan faol aloqada bo‘ldi. O‘z navbatida uni targ‘ib qilib, folklordan o‘rganishga ijodkorlarni da’vat qildi. Uning bu boradagi ishlaridan biri «Folklordan o‘rganaylik» nomli maqolasidir. Taniqli adib mazkur maqolasida ilgarigi davrlarda xalq ijodiyotining omma orasida keng yoyilgani, oddiy kishilarning undan ma’naviy oziq olgani, uning ijodkorlari va ijrochilari haqida so‘z yuritadi. Xonlar, amirlarning saroyida saqlangan maxsus baxshilar hamda ularning taqdiri haqida hikoya qiladi. Folklorning yaratuvchisi oddiy xalq ekanligini ta’kidlaydi. Uni xalq hayotidan ajratib o‘rganish mumkin emasligini uqtiradi.

G‘afur G‘ulomning “Folklordan o‘rganaylik” degan maqolasi aslida ma’ruza shaklida tayyorlangan bo‘lib, talantli adib bu ma’ruzasini 1939 yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining II qurultoyida o‘qigan. Ma’ruza ilmiy xarakterga ega bo‘lib, o‘z mazmuniga juda ko‘p masalalarni qamrab oladi. Shu masalalardan bittasi o‘zbek baxshilari hayoti va ijodi haqidadir.

Adib, dastlab, Ergash Jumanbulbulning shajarasi haqida so‘z yuritadi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li 1870 yilda Nurota rayonida tug‘ilgan. Ergash baxshi otasi Jumanbulbul va amakisi Jassoq baxshilardan tarbiya olgan. U ko‘p o‘zbek xalq dostonlarini bilar edi. Ayniqsa, Go‘ro‘g‘li sikliga kirgan dostonlarni aytishda fantaziyasining kuchliligi, quvvai hofizasining kuchliligi, uydirmachilikka ustaligi, so‘z boyligi, obrazlar yaratishda mislsizligi, vazn va qofiyalarga, sajiya va mantiqlarga zo‘r e’tibor berganligi, aytishda sodda va samimiyligi bilan birga, ustozlardan eshitgan narsalarini hatto kichik bir verguligacha yodida tutib, bizlarga taqdim qilganligi bilan hurmatlidir.

Undan o‘nga yaqin katta-katta doston yozib olishga ulguroidik. Hali yuqorida

aytib o'tganimizday, birgina "Go'ro'g'li" sikliga 40 doston kiradi, har dostonning o'qilish o'lchagi bir oqshomdir. Afsuski, s'ezdimizning ro'znomasi menga, ya'ni kami 100 doston, sanoqsiz qo'shiq, ertak, maqollar ustida gapirib chiqishga, hech bo'lmasa, bir oqshom ham so'zlashga vaqt bermagan. Shunday bo'lsa ham, men ustoz Ergash Jumanbulbul o'g'lining, hech bo'lmasa, uch poemasi, "Ravshanxon", "Qunduz bilan Yulduz" dostonlari ustida undan-bundan bo'lsa ham, gapirib o'tmoqchiman.

Adib Ergash shoir hayoti haqida ma'lumot bergandan keyin uning "Ravshan", "Qunduz bilan Yulduz" dostonlariga qisqacha to'xtaladi. Dostonlardagi saj' san'atiga doir xarakterli misollarni keltiradi:

"Ana endi to'yni boshlab, vaqtini xushlab, necha tishi yo'q qariyalarni quyruq yog'i palov bilan oshlab: kuniga uch yuz uloqni ko'pkariga tashlab, ko'pkarini choptirib, elning ko'nglini toptirib, olomonning bariga ola chopon yopdirib, el-xalqini yig'dirib, karnay-surnay qo'ydirib, semiz so'qimlar so'ydirib, katta-katta o'choqlar o'ydirib, palovga hammani to'ydirib, uzoqdan poyga qo'ydirib... tapir-tupur, tasurtusur bir katta to'y qildi. Bir yoqda qizlar, satta kerilgan sarvinozlar, yasangan tannozlar, sop dovushi sozlar, hadsiz o'yinbozlar. Bir yoqda dorbozlar, bir yoqda necha xush ovozlar, qo'llarida sozlar, kecha-kunduz dam olmasdan bo'zlar. Agar ikki odam bir-biridan ayrilib ketsa, bir hafta o'n kungacha izlar. Bir yog'i ko'pkari, bir yog'i savash, bir yog'i o'yin, bir yog'i kurash, o'rtaga tushibdi katta polvonlar, qiladi talash. Bir yog'i o'ris, bir yog'i qizilbosh, qozoq, qalmoq aralash. Tog'dagi yurgan tojiklar olib kelibdi yong'oq bilan pista; ko'chadan qilib olibdi do'kon rasta-rasta. Jami odam yig'ilib, to'lib qolibdi baland-pastda; uni ko'rgan odamlar havasda, ko'rmay qolgan xasta".

G'.G'ulom Ergash shoirdan so'ng Fozil shoir hayotiga qisqacha to'xtalib o'tadi: Fozil Yo'ldoshev-xalq shoiri, baxshi. 1872 yilda Bulung'ur rayon Bedana qishlog'ida tug'ilgan. "Yangi mehnat" kolxozining a'zosi. Mashhur xalq shoiri-baxshi Yo'ldosh shoir Mamatqulovning shogirdi. Fozil shoir quyidagi poemalarni biladi, xalq orasida do'mbirasi bilan aytadi: "Alpomish", "Malikai Ayyor", "Zulfizar", "Rahna va Suxangul", "Yusuf va Ahmad", "Shirin va Shakar", "Nurali", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Jahongir", "Yodgor" (Alpomishning o'g'li), "Mashriqo",

“Rustamxon”, “Balogardon”, “Intizor”, “Matkarim polvon” va boshqalar.

Fozil Yo‘ldoshev o‘zining asarlari bilan butun O‘zbekistonga mashhurdir. Fozil ota aytaturgan dostonlar ichida eng ulug‘ va badiiy ishlanish yog‘idan eng mukammali, shubhasiz, “Alpomish” dostonidir. Bu dostonni shoirning o‘zi ham juda zavq va maroq bilan, o‘tkir rubobiy ehtiros bilan aytadi.

Shoir Hamid Olimjon Fozil ota bilan birlikda bu doston ustida ikki yildan buyon ishlaydilar. Bu dostonda Hamid Olimjonga ma‘lum bo‘lmagan biror teskari pech ham yo‘q. Men dostonni huzur bilan o‘qib chiqdim. Dokladni juda qisqa muddatda tayyorlashga to‘g‘ri keldi. “Alpomish” ustida biror yangi fikr aytmoqchi bo‘lganimda ham bari bir Hamiddan ortiq aytolmas edim”...

Fozil shoir repertuaridagi “Alpomish” haqida so‘z yuritgandan keyin, uning “Farhod va Shirin” dostonini A.Navoiy “Xamsa”sidagi shu nomli asar bilan qiyoslaydi.

Fozil jirov Yo‘ldosh o‘g‘lining ehtiros bilan kuylayturgan dostonlaridan yana biri “Farhod va Shirin” dostonidir. Men bu dostonni jo‘rttaga misolga oldim. Chunki men dokladning boshida xalq optimistligi to‘g‘risida gapirib, Alisher Navoiy «Farhod va Shirin”i bilan xalqnikini bir-biriga taqqoslash va‘dasini bergan edim. Ma‘lumki, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”ni yozishda xalq adabiyotidan keng foydalanishi bilan birga, ikkinchi navbatda, Navoiyning “Farhod va Shirin”i ham folklorga ta’sirsiz qolmagan. Xalq og‘zida aytilib kelayotgan bir necha variantlardagi bu dostonlarda asosiy sujet bo‘lib Navoiy teksti yotadi.

Navoiy asarida haqiqiy ishqning mehnatda va kurashda ekani juda to‘g‘ri va ochiq ko‘rsatilgan. Xalq og‘zidagi variantlarda ham birinchi planda mehnat va kurash yotadi, lekin o‘z qahramonlarining bu halol mehnatlari, kurashlari, tortgan jabru jafolarining mukofotsiz qolishini istamaydi, ular o‘lmaydilar, murod-maqсадlariga etadilar. Buning sababi shuki, xalq o‘limni sevmaydi, qonni yomon ko‘radi, xalq optimistdir”.

“Folklordan o‘rganaylik” nomli ma‘ruzasida ko‘plab baxshilar, ertakchilar haqida so‘z yuritgan, folklor janrlarining deyarlik barchasiga tavsif bergan. Shu asnoda Xorazmdagi baxshilar haqida ham ayrim fikrlarni aytib, bir qancha dostonlarning

nomini qayd qilib o'tgan.

Qurbonnazar Abdullaev tahallusi Bola baxshi, 1904 yilda Xiva shahri, Shixkabir qishloq sovetidagi Gullanbog' qishlog'ida tug'ilgan. Bola baxshi quyidagi xalq dostonlari va qo'shiqlarini biladi, xalq orasida dutor bilan aytadi: 1 "Oshiq G'arib", 2. "Avaz", 3 "Bozurgoni", 4. "Ashur Mahmud", 5. "Xirmon Dali" va shunga o'xshaganlar.

U o'z asarlari bilan butun Xorazm oblasti bo'yicha mashhurdir.

Qurbon Ismoilov-xalq kuychisi. Xiva shahrida tug'ilgan. Taxallusi-Qurbon sozchi. U ko'p xalq ashulalarini biladi va garmon bilan kuylaydi.

Ushbu ko'chirma o'sha davr nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, undagi ayrim anglashilmovchiliklarni tuzatib o'tishga to'g'ri keladi.

Birinchidan Qurbonnazar Abdullaev 1904 yilda emas, balki 1899 yilda tug'ilgan. Dostonlarning nomi "Ashur Mahmud" emas, "Oshiq Mahmud", "Bozurgoni" emas, "Bozirgon" tarzida berilishi kerak.

Shuningdek Qurbon sozchi-Qurbon ota Ismoilovning taxallusi emas, laqabidir. G'.G'ulom mazkur ma'ruzasining navbatdagi qismlarida ertaklar va ertakchilar haqida so'z yuritadi:

Hasan Xudoyberdiev. Ertakchi. 1890 yilda Namangan shahrida tug'ilgan. Mashhur ertakchi, gilkor usta Isoning shogirdi. Hasan Xudoyberdiev 1917 yildan beri Namangan shahrida temir yo'l ishchisi bo'lib ishlagan. 1938 yilda o'lgan. Ertakchi Hasan Xudoyberdiev quyidagi ertaklarni bilgan va aytgan: 1. "Kambag'al qiz", 2. "Ozoda Chehra", 3. "Malikayi Husnobod", 4. "Bulbuli go'yo" va boshqalar.

Xalqimiz tomonidan tug'ilayotgan ertaklar ham ularning o'tmish hayotlari, turmush kechirmalari, sinfiy kurashlari bilan zich bog'langandir. Umuman folklor asarlari, ayniqsa, dostonlarda ko'rilgan xislatlarning hammasi ertaklarda ham bor. Ertaklar xalq orasida keng tarqalgan, yoyilgan bir janrdir. Yuqorida aytganimizdek, mehnatkash xalqning sinfiy kurashini, o'zini ezuvchi, ekspluatatsiya etuvchi sinfiy dushmanlariga bo'lgan nafritini g'azabini tashiydi. Xalq o'z ertaklarida botir, qahramon bolalarining obrazlarini yaratib dushmanga qarshi qo'yib, kurashtiradi, engadi. Bu jihatdan dostonlarda bo'lgan butun, hech bo'lmasa bitta, ikkita ertakdagi parchalar olib o'qisak

ham biz buni ravshan ko‘ra olgan bo‘lamiz.

Adib ertaklardan “Uch og‘ayni botirlar” variantini keng tahlilga tortadi. Ertaklar tahlilidan keyin Nasriddin Afandi latifalari va undagi asosiy qahramon bo‘lgan Afandi obrazi haqida so‘z yuritadi:

Nasriddin Afandi latifalarida donishmand xalq pokiza axloq, halollik, rostgo‘ylik uchun kurashuvchi sifatida maydonga chiqadi. Latifalarda turmushimizning hamma Chirkin, badbo‘y joylari achitib so‘kiladi. Bular esa hozirgi zamonda ham xalqimizning tushunchasidan kapitalistik tuzum qoldiqlarini tozalash uchun qat’iy kurash olib borib turgan chog‘imizda o‘zining ahamiyatini yanada ko‘taradi. Afandi o‘zining tentagona so‘zlari bilan somelarini qattiq kuldirib turib, o‘zidagi inson nomiga yarashmaydigan qiliq va odatlari haqida o‘ylanishga majbur qiladi. Takror aytamanki, bu yangi jamiyat qurish uchun kurash olib borib turgan chog‘imizda, halol, rostgo‘y, dovyurak, mehnatsevar kishilar tayyorlashda Nasriddin latifalarining roli ancha bo‘ladi.

Afandi obrazi bir necha yuz yillardan buyon xalqimiz ichida huzur qilib yashab keladi, xalq uning obrazini, agar shunday odam bir zamonlarda yashagan bo‘lsa, uning xotirasini katta hurmat bilan eslaydi, asrdan-asrga ko‘chiradi, u orqali har bir asrning hayotida bo‘lgan nuqsonlarni qo‘ymay ochadi, taajjublanarli emaski, u hozirgi zamonamizdagi ko‘p voqealarda ham qahramon bo‘lib chiqib turadi.

Ma‘ruzada latifalardan keyin xalq qo‘shiqlari tahlilga tortiladi. O‘sha yillardagi hayotda yuz bergan vaqealarni o‘zida ifodalovchi ko‘pgina xalq termalari haqida fikr bildiriladi.

Yangi to‘qilgan ayrim qo‘shiqlardan namunalar keltiradi. Shulardan bittasi “Vatan” qo‘shig‘idir:

Men shod Vatanimga jonajonman,
Do‘stlarga muhabbati chunonman.
Dushmanga zaharli bir tikonman,
Rahbarimizga mehribonman.
Do‘stlar kabi sohibi zamonman,
Bu shod Vatanimga jonajonman.

G'.G'ulom o'z ma'ruzasining navbatdagi qismida xalq qo'shiqlari haqida to'xtalib o'tadi.

Adib ma'ruzasining nihoyasida folklor va yozma adabiyot masalasiga to'xtaladi. Dastlab Alisher Navoiy ijodining xalqchilik negizi haqida gapirib shunday yozadi:

Ulug' adib shoir va olim Alisher Navoiyning shoh asarlari bo'lgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyora"dagi etti musofir hikoyalari xalq ijodidagi kuchli fantaziyaning aqlarni shoshirar darajadagi uydirmachilik san'atining, kam-ko'stsiz so'z boyligining jamuljamida adabiyot san'atining tojidagi gavhari serobiday porloq namunasidirki, Navoiy bu asarlari bilan xalqning ulug' ijodkori bo'lib qoladi. U o'z sujetlarini xalqdan olgani kabi, ikkinchi navbatda xalq uchun sujet beradi.

Ma'ruza muallifi o'z navbatida Gulxaniy ijodiga ham nazar tashlab shunday yozadi: "XIX asrning boshlarida yashagan Umarxon adabiy doirasining asosi hisoblangan, shoirliği bilan birga o'tkir satirik bo'lgan Mulla Gulxaniy o'zining shuhratli "Zarbulmasal"ini yozishda boshdan-oyoq xalq maqollaridan foydalangan, ularni bir erga to'plab, bir ipga tizib hikoya shaklini bergan...

G'.G'ulom ma'ruzasi davomida Hamza va xalq og'zaki ijodiga ham to'xtaladi. Shu narsani takidlaydiki, Hamza har bir asari o'z ibtidosini xalqdan olganiday so'nggi ham xalqqa borib tutashar edi. Chunki Hamza asarlari mehnatkash xalqning yuragi, ishq, istagi, g'azabi, butun hissiyotlari bilan jips bog'langan bo'lar edi. Shuning uchun ham uning asarlari hali shoirning korxonasidan chiqmay turib xalq og'ziga tushib ketar edi. Hali hozirgacha ham bir talay qo'shiqlar, kuylar bordirki, buning ijodchisi adib Hamza Hakimzodadir.

Adib bu masalani yakunlar ekan, yozma adabiyot vakillariga shunday vazifani qo'yadi: "Yozma adabiyotimizning kadrlari folklordan o'rganish bilan birgalikda, ikkinchi navbatda og'zaki adabiyotning bundanso'nggi o'sishiga yo'l-yo'riq ko'rsatishlari kerak. Og'zaki adabiyotni yangi sujetlar bilan boyitishda, o'sha sujetni ifoda qilar ekan, har bir satrgacha bizning dunyoqarashimiz bilan sug'orilganligini ta'min qilishda yozma adabiyot kadrlarimiz folklorchilarga yordamda bo'lishlari kerak".

G'.G'ulomning folklor asarlari haqidagi har bir fikri dalillar bilan asoslab berilgan.

Ushbu fikrlarning aksariyati nazariy masalalarga doir bo'lib, hozirgacha o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Binobarin, taniqli adib o'z ma'ruzasida folklor asarlarini to'plash, ulardan xalq ma'naviyatini boyitishda foydalanish, ijodkor baxshilarni e'zozlash haqida muhim fikrlarni bayon qilgan.

1.2. G'afur G'ulom folklor janrlari haqida.

Folklorshunos adib o'z maqolalarida folklor janrlariga ham to'xtalib o'tgan. Xususan, adib dostonlar haqida gapirar ekan, ularda ishtirok qiluvchi xotin-qizlar obraziga alohida e'tibor qaratadi. "Qunduz bilan Yulduz" dostonida ayollarning mardligi xususida dostonidan ayrim parchalar keltiradi.

Eri Avaz o'q eb kelganini ko'rgan Qunduz oyim: «Mabodo qalmoqlar kelsa, to'ramning yarador bo'lganini bilib qolsa, to'ram o'zini bilmay yotsa, ko'p dushman kelib to'ramni o'ldirib, meni boylab olib ketsa, oru nomus barbod bo'lsa, uyat o'limdan qattiq deganday, tiriklikni naylayin?»-deb o'yga tushdi. Innaykeyin Avazning sovut-qalqonini kiyib, sochlarini yig'ib, dubulg'a ostiga bostirib, G'irko'k otning ustiga minib, qilichini sirmab, dushman ustiga yurdi. Shunda G'irko'k otga qarab bir so'z aytayotir:

-Quloq solgin oy Qunduzning so'ziga:
To'ram yolg'iz, dushman yurar iziga.
Bir ko'rinmay dushmanlarning ko'ziga,
Chu-ha, chu-ha, dushmanlarning ustiga!..

"Qunduzning chirog'i o'char" demasin,
"Endi kafan to'nin bichar", demasin,
"Erin tashlab Zangar qochar", demasin,
Chu-ha, chu-ha, qalmoqlarning ustiga!..

Yov qo'shini ustiga borgan Qunduz aytayotir:

-Ko'p qo'shin yotarmi tulkiday biqib,
Botir ham turarmi dushmandan irqib,
Bir qilichim qopti esimdan chiqib,

Kel, qalmoqlar, mard Alining maydoni!
Oqizarman ko‘zdan qonli yoshingni,
Men qo‘rqmasman ko‘rib katta qo‘shinni,
Biring qo‘ymay kesib ketay boshingni
Kel, dushmanlar, mard Alining maydoni!

O‘sha kundagi jangda Qunduzoyning ko‘rsatgan botirligini ta’riflab, xalq shoiri aytadi:

Qirg‘iy yurar qiyada (ya’ni Qunduz),
Shunqor yotar uyada (Avaz).
Urush qildi oy Qunduz
Bol Avazdan ziyoda...
To‘planib yotgan qalmoqni
Joyidin Qunduz ko‘chirdi.

Dostonlarda xotin-qizlar obrazi shundaydir. (1)

G‘.G‘ulom dostonlarda ishtirok etadigan epik ot haqida gapirar ekan, asarda qo‘llanilgan she’riy misralarning vazn tuzilishiga e’tiborni jalb qilib, shunday yozadi:

“Dostonlarda otning yurishiga, tuyoq moslama she’rlardan bir necha shakllarni uchratish mumkin. Mana shu she’rlarda chopib borayotgan otning tuyog‘i tinglanmaydimi?

Qulon yurmas erlardan
Quvib o‘tib boradi.
Bulon yurmas erlardan
Buvib o‘tib boradi.

Qarsoq yurmas erlardan
Qalqib o‘tib boradi.

Bo‘ri yurmas erlardan
Bo‘zlab ketib boradi.
Polvon Hasan dovushin

Sozlab ketib boradi.

Bek Ravshanni tinmasdan

Izlab ketib boradi.

Qilichga ham, qo‘ldagi shunqor qushga ham, ishqilib nimaiki murod-maqсадga etish yo‘lida xalqqa ko‘mak berar ekan, uning hurmati muqaddasdir. (2) Adibning epos ijrochilari bo‘lgan baxshilar haqida bildirgan fikrlari ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Hatto bir paytlar ilmda «baxshi» atamasini tilga olishga hadiksiraydigan tadqiqotchilar bo‘lgan. Bu holatni G‘.G‘ulom keskin qoralaydi va mazkur atamaning ma‘nosini keng sharhlab beradi.

“Ertaklarni, maqollarni ayrim qo‘shiq va termalarni ham mayda dostonlarni hisobga olmaganda, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Yusuf Ahmad”dan iborat bo‘lgan uchta katta sikl dostonlar tizmasi borki, bir Go‘ro‘g‘li siklining o‘zi qirq dostondan iboratdir. Bu dostonlarning kichigi 5 ming satrdan, kattasi 12 ming satrgacha boradiki, o‘rta hisob bilan har bir doston Navoiyning «Layli va Majnun”icha bor. Demak yana yuqorida aytilgancha, ertaklarni, maqollarni, qo‘shiqlarni, termalarni, siklga kirmagan dostonlarni hisobga olmaganda, xalq ijodidan kami yuz dostonni bilguvchi jirov, baxshilar to‘g‘risida hozir gap bormoqchi.

O‘rni kelganda aytishim kerak bo‘lib qoladi. Nima uchundir ba‘zi o‘rtoqlar «baxshi» so‘zidan hurkar ekanlar. Bu so‘zni forslarning baxshoyanda, ya‘ni bag‘ishlaguvchi so‘zidan buzilgan deb, ya‘ni zamiriy ma‘nosi tangriga qaytadi, deb qo‘rqarmikanlar, bilmadim. Haqiqatda esa oqin-forsiyning oxund so‘zidan buzilgan, jirov-jirlovchi, ya‘ni jirlamoq masdarining ismi foili; **baxshi**-muzikant, ashulachi, **oshiq**-qo‘shiqchi ma‘nolaridadir. Navoiy bu to‘g‘rida:

Sartg‘a garchi noshiy berur baxshilar,

Turk ila ham yaxshi borur baxshilar,-deydi.

Yana Navoiy o‘z “Xamsa”sida o‘zini xalqning baxshisiman, deb e‘lon qiladi. Demak, meningcha, baxshi so‘zini ishlata bersak bo‘ladi. (3)

Xulosa qilib aytganda G‘.G‘ulom xassos shoir, mohir nasr ustasi bo‘lish bilan birga talantli olim, xalq ijodiyotining targ‘ibotchisi va tadqiqotchisi hamdir.

Adib lof janri haqida. Buyuk adib G‘afur G‘ulom badiiy ijod sohibi bo‘lishi

bilan birga xalq ijodiyotining faol targ'ibotchisi va ayni paytda to'plovchisi hamda tadqiqotchisidir. Ayniqsa uning loflar haqidagi bildirgan fikrlari hozirgacha folklorshunoslikda o'z qimmatini yo'qotgan emas. Adib loflar haqida o'tgan asrning 30-yillaridayoq o'zining original fikrlari bilan maydonga chiqqan edi. U O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining qurultoyida xalq og'zaki ijodiyoti haqida ma'ruza qilayotib, mazkur janr haqida, ularning so'nggi avlodlarga etib kelgan namunalari xususida ko'plab yangiliklarni yoritib bergan edi.

G'.G'ulom oddiy xalq orasidagi talantlarni juda yaxshi bilgan, ular bilan qizg'in suhbat tashkil etgan va o'sha kishilar bisotidagi loflarning nodir namunalarni esida qoldirib, keyinchalik o'z asarlarida foydalangan, ayrimlarini o'z holicha e'lon qilgan. Masalan, adibning «Gilos danagidan tasbeh» kitobida u loflar haqida quyidagicha ma'lumot berib, ayrim namunalarni ham e'lon qilgan.

«Arablar bizning O'rta Osiyomizni istilo qila boshlaganlarida yo'ldagi birinchi shahar Marv (Mari) ekan. Shunda Qutaybaning g'olib qo'shinlari bir ulkan va ko'rkam yong'oq tagida to'kin dasturxonni ustida mast-alast o'ltirar ekanlar. Albatta endi bu dasturxonda jayron kabobdan tortib Amu laqqasigacha Ashxabod anoridan tortib Qahqa uzumigacha, Chorjo'y, Besho'g'izning qovunu tarvuzlarigacha bor edi. Shunda bir arab sarkardasining boshiga «qars» etib bitta xom yong'oq tushibdi. (Olmaxonmi, qarg'ami o'ynagan bo'lsa kerak.) Kayfi uchgan sarkardai g'urra bosh shu yong'oqni qo'lga olib, aylantirib ko'ra boshlabdi. Qarasaki, dasturxonda so'yilmagan tarvuz ham shunga o'xshaydi. Shunda she'r bilan aytgan ekan:

Daraxti g'o'z agar ham chun balandi,

Daraxti harbo'za ollohu akbar.

Ya'ni:

Yong'oq daraxti-ku shunchalik baland,

Tarvuz daraxtidan xudo asrasin.

(Tarjimasini o'zginam yasab tashladim.)

Aytganiki: shu yong'oq o'rniga daraxtdan tarvuz uzilib tushsa chilparchin bo'lardim...

Xalqimizda mubolag'a-giperbola, ya'ni lof janri hamma so'zda va suhbatda osh

tuziday zaruriy.

Bay, bay, bay.. Kuyov yigitning maqtovini sovchilardan eshitsangiz:

-Eralijon tushmagur, bu yil baliq yili bo'lsa roppa-rosa o'n to'qqizga kiradi. To'yga atab bita jun qopdagi o'n to'qqiz pud bug'doyni bitta o'zi ko'tarib kirdi. Raisimiz: «Qo'y, belginga shikast etadi», desa ham «be!» depti-da, limmo-lim o'g'it ortilgan gruzovoyini botqoqdan elkalab, tosh yo'lga chiqazib qo'yibdi.

Kelin bola ta'rifida:

-Shafag'atoyini ayting... Kim tikilsa kiprigi qayrilib ketadi. Sanomorasta, og'zi bilan beli bormi, yo'qmi, biz haligacha bilmaymiz... Chumchuqcha ovqat eydi... Suv ichsa tomog'idan, sabzi esa biqinidan ko'rinadi... Shunaqayam pazandaki, yo'q erdan bunyod qiladi. Suvdan xolvaytar, tariq yormadan palov pishiradi, baraka topgur.

Rostini aytganda, Eralijon o'ttiz etti yoshdagi cho'tir yigit, Shafag'at bo'lsa-bir ko'ziga oq tushgan, yoshligida sandalda bir yonboshi kuygan qari qiz...

Hamma xalqlardagidek, bizning klassik adabiyotimiz ham zamon adabiyotimiz ham loflardan, giperbolalardan xoli emasdir.

Biz xalqimiz loflardan ba'zi nusxalarni ko'chirmoqchimiz.

Xalilcha halol degan namanganlik bir lofchi bilan ohangaronlik Sandonqul Tangatopgan degan dovonda uchrashib qolishibdi. Hol-ahvol so'rashgandan keyin:

-Xo'sh, Ohangaronlarda nima yangilik bor? –deb so'rapti Xalilcha halol.
-He, nima bo'lardi, odam hodis, ya'ni biz yashab turgan olam hodisalardan iborat deganlaridek, bizning Ohangaron chilangarlari bir mingu uch yuz qirq quloqli bitta doshqozon yasashyapti. Bir qulog'ida turib o'n qadoqli bolg'a bilan ertalab urgandagi chiqqan ovozni ikkinchi quloqdagi chilangar tushdan keyin eshitadi.

-Barakalla, bu kiroyi dekcha bo'lipti,- depti namanganlik Xalilcha halol. Keyin Sandonqul so'radi:

-Xo'sh, Namanganda nima yangiliklar bor?

-Namangan dehqonlarining qo'li gul ta'rifligi bu tomoni Chin-Mochin, bu tomon qaysari Rungacha ma'lum. G'irvon dehqonlari bu yil lavlagi-qizilcha ekan edilar. Ayniqsa Shoddi so'takning lavlagisi bo'lib berdi. Yuqori dashtda shunday bir tup lavlagi o'sdiki, barglarining soyasida o'n ming otliq askar salqinlasa bo'ladi.

-Voy ahmoq,-dedi Sandon, -lof ham evi bilan-da, lavlagi ham shunaqa bo'ladimi?

-Men ahmoqmi, senmi,-dedi Xalilcha halol. –Sen aytgan haligi qozonchada o'sha lavlagi qaynamasa, nima qaynaydi?

Saratonning jazirama kunlaridan birida andijonlik Lom-mimbek suhbatdosh topolmay zerikib qo'qonqishloqlik Ali jimjit degan do'stining uyiga boribdi.

-Xush kelding,-deпти Ali jimjit,-obdan mehmon qilar edim-ku, vaqtim ziqroq. Tez-tovur gapingni ayta qol.

-Besh og'iz gaplashib ketay deb keluvdim, deпти Lom-mimbek.

Ha-ha,-deпти Ali jimjit,-bo'lmasa sen o'tirib tur, men uyga kirib chiqay.

Lom-mimbek yalang sayhondagi supachada kun tig'ida terlab-pishib Ali jimjitni kutib o'ltiribdi.

Bir mahal desangiz, Ali jimjit qo'y teridan qilingan katta qirg'iz po'stin, belida shol belbog', oyog'ida teri etik, boshida tulki teridan telpak-tumoq, qo'lida qo'lqop, qo'ltig'ida ikki boylam qarag'ay o'tin, qo'lida bir hokandoz cho'g'-ichkaridan chiqib kelibdi.

Buni ko'rgan Lom-mimbek hayratda qolib.

-Bularing nimasi?-deb so'rabdi.

-Sen –ku besh og'iz so'zlashamiz, deding,. Senu mening besh og'iz so'zimiz o'zimizga ma'lum. So'z bora-bora tortishuvga, tortishuv-bahsga, bahs-janjalga, janjal-kekirdakbozlikka aylanib ketib suhbat bir oz cho'zilishi mumkin. Yoz o'tar, kuz o'tar, qilichini ko'tarib qish kelar, gapimiz tugamas, muddao aytilib bo'lmas, o'zim sovuqqa ojiz, soyasi yupqa odamlardanman, tag'in qish chillada tumov-pumov bo'lib yurmay. Yoz yopinchig'ingni qo'yma, qishda o'zing bilasan, degan maqollar bor. Sen ham kalta so'zlik bobida onangdan qolishmaysan. Ularni xudo rahmat qilsin, elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor, deyishadi. Baraka topgur, Lom-mim uka, qani, ro'paramga o'tir-chi...-deb so'zini tamom qilganda narigi muyilishda ko'chani changitib qochib ketayotgan Lom-mimning sharpasini arang ilg'ab qoldi.

Adibning keltirgan ushbu loflari mazkur janrning mumtoz namunalaridir. Chunki loflarning eng yaxshi, original ko'rinishdagi turlari bizgacha etib kelmagan.

Hozirda e'lon qilinayotgan loflarda muammo qo'yish va uni echish oddiy tarzda namoyon bo'ladi. G'.G'ulom keltirgan loflarda esa o'ziga xos tugun, voqea rivoji va original echim mavjud. Shu sababli ushbu namunalar eshituvchida va o'quvchida mazkur asarlarga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularga zavq bag'ishlaydi.

Talantli adib atoqli qiziqchilarimiz merosidan ham boxabar bo'lgan. U o'zining "Gilos danagidan tasbeh" kitobida bir –qancha qiziqchilar haqida ma'lumot beradi. Quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz.

Isaxon askiya 1896 yilda 90 yoshlarida vafot qilgan. Kasbi muhrgar-muhr o'yishlik edi. Umrining boshlarida Qo'qonda, keyinchalik Toshkentda yashagan. Isaxon askiyaning tabiatida o'tkir yumor, satira ruhi bor edi. Biror mushkul so'z oldida dovdirab qolmay, juda tez, hozirjavoblik bilan rad so'zi ayta olar edi.

Eskicha ilmi mukammal, madrasa ko'rgan o'tkir mullalardan, adabiyot, xususan she'riyatdan g'oyatda bahramand kishi edi. Zamonasidagi diniy xurofot, feodalizm zo'ravonligiga jonidan zid kishi edi. Uning hazillaridan namuna.

G'afur G'ulom askiyachilar haqida so'zlar ekan, ularning repertuari haqida ham to'xtalib o'tadi. Jumladan, u Isaxon askiyaning "Annaqulbek qozi" hajviyasini keltiradi. Bu hajviyada askiyachining mahorati to'la namoyon bo'ladi.

Bu hajviyada turli xalqona o'xshatishlar, sifatlashlar, mubolag'a va iboralar ko'plab uchraydi. Biz asar matnini keltirib, ushbu xalqona badiiy nutqdagi vositalarni takidlab ko'rsatdik: "Askiya uyida ish bilan mashg'ul edi. Eshik taqillab qoldi. Ustida jomakor bilan ko'cha eshikka chiqdi. Eshikda otliq, basavlat, **shop mo'ylovli, ketmon soqolli** ellik yoshlardagi bir kishi turar edi. Boshida **laylak uyaday salla, egnida banoras to'n**, to'n ichidan belidagi **kumush kamar** ko'rinib turibdi. Bo'ynida **kumush zanjirli** but¹.

-Xizmat?-dedi Isaxon askiya.

-Muhr o'yadigan usta, askiya kim bo'ladi?

-Kaminalari, biz bo'lamiz.

-Kamina-paminangni bilmayman. Menga **azro'yi shariat** muhr o'yib berasan.

¹ O'rta Osiyo qozilari har bir chiqargan hukmlarini podsho nomidan o'qir edilar. Hukm vaqtida but taqish majburiy edi. Lekin Annaqulbek o'lguncha maqtanchoq kishi bo'lgani uchun begim vaqtlarida ham butni taqib yura berar edi.

Hukm shu!-dedi mo'ysafidni sansirab.

-Juda ham hukm emasdir-e, taqsir. Iltimos deng. Iltimos...-dedi muloyim tabassum bilan askiya.

-Ha ko'p. Ana sen aytgancha iltimos bo'la qolsin. Ertaga tayyor bo'lishi kerak.

-Qanday muhr?

-Iya, mana bu nima?-butni ko'rsatdi.

-Tovuqning oyog'i.

Annaqulning ko'zi qinidan chiqib keti.

-Og'zingga qarab gapir hoy chol. Bu oq poshshomizning xudosi. Shu bo'lmasa bizning hukmimiz ham **bir paqir**... Xo'p, ishga kelaylik. Men Oqqo'rg'onga qozi saylandim. **Soqqa mening otimga chiqdi**. Endi qozilik muhri kerak.

-Xo'p, o'yib beramiz, otingiz, otangizning ism-shariflari nima?

-Muhrga otamning otini o'ymaysan, otamdan aynaganman, u meni "oq" qilgan. Otam o'rniga qaynatamning otini o'lasan. U kishini yaxshi ko'raman, otlari Xushmuborak. Mening otim Annaqulbek. Innaykeyin, **azro'yi shariat** qur'onda ikkita surani ham shu muhrga qo'shib o'lasan.

-Iya, -dedi askiya, -bu muhr biror **sopol lagancha** bo'lar ekan-da?

-Yo'q, -dedi Annaqul, -kattaligi **bir miridan** katta bo'lmasin. Agar shu ishni ertaga bitkazib berishga va'da qilsang, mana shu minib kelgan otim seniki, hozirdanoq yuganini qo'lingga beraman.

Annaqulbek otdan tushishga harakat qildi.

-Tushmang, tushmang,-dedi askiya,- muhr ertaga, albatta tayyor bo'ladi...

-Ertaga qay mahalda kelay?

Ertasiga qiyomdan keyin bir otni minib, bir otni etov qilib qozi keldi. Muhr tayyor bo'lgan edi. **Besh tiyinlikday** doira muhrda shu bir bayt o'yib yozilgan edi:

"Qur'ondan ikki sura: yosin bilan taborak Qozisi Annaqulbek, qaynata Xushmuborak".

Annaqulbek askiyaning hunariga g'oyayatda qoyil qoldi. Mamnun bo'ldi. Etov otning jilovini tutqazdi, boz ustiga **banoras to'n**ni ham echib berdi...

Askiya, elkasida to'n, qo'lida otning jilovi, kulib qola berdi". Matndan

ko‘rinadiki talantli adib askiyachilarning badiiy nutqdagi mahoratini to‘laligicha bera olgan.

G‘afur G‘ulomning ushbu kitobida yana bir askiyachining kichik biografiyasi berilgan: **Abdulla fonuschi**-halqimiz g‘oyat sevgan, hurmat qilgan, ardoqlagan qiziqchilardan birisi toshkentlik Abdulla fonuschidir. U 1914 yilda 86 yoshda vafot qilgan, uning askiyalari, qiziqchiliklari, boylar, eshonlar, boyvachchalar, mayxo‘rlar, xotinbozlar, amaldorlar ustidan qilgan hajv-hangamalari hali-hali xalq o‘rtasida zavq bilan takror qilinadi, tan berib esga olinadi.

Bu zot ovoz taqlidida g‘oyat mashhur edi. Istasa yosh qiz bo‘lib, istasa kampir bo‘lib, istasa bola bo‘lib, chol bo‘lib so‘zlay olardi, qush bo‘lib sayrar, toychoq bo‘lib kishnar edi. Past bo‘yli, kichik qolipdagi oyog‘i, xipcha jussasi paranji yopinib buzuqi boyvachchalarni ahmoq qila olishga yordam berar edi.

1912-1914 yillarda Ilhom samovarchi bilan To‘ychi Hofizlar o‘zbek ashulalari, maqomlarini grammofon plastinkalariga yozdira boshlagan edilar. Shunda Abdulla fonuschining ham bir qator yumoristik, satirik hikoyalari, hangamalari plastinkaga yozdirilgan.

Uning plastinkalaridan bittasida taxminan quyidagi mazmunda bir yumoristik hikoya yozganligi g‘ira-shira yodimda: Adib ushbu biografik ma‘lumotni keltirish bilan birga askiyachining “**Xasis**” nomli hajviyasini keltiradi. Bu hajviya ham badiiy nutqning nodir namunalaridan sanaladi.

“Bizning qo‘shni Mirkamol chorbozorchini Toshkenti azimda tanimaydigan kishi kamdankam topiladi. Qissasulanbiyo kitobida Hotamttoy degan kishi mardlikda katta shuhrat topgani yozilgan. Ammo bizning Mirkamol baxillikda nom chiqargan.

Eri xotin podachidan osh, gadoydan non so‘rab, kun o‘tkazadilar. Farzandlari yo‘q. Hamsoyalardan chiqadigan qo‘shni osh tamaida hovlilarining uch tomon devoridan tuynuk ochganlar.

Kunlardan bir kun xotini Zamira **toqi qabziyat** bo‘lganda emchi kampir unga:

-Qatiq iching, bolam, -degan ekan. Shunda bir stakanda qatiq olingan edi. **Shu qatiq achib ketgan bo‘lsa-da, hali ham bor. Chunki Zamira toqi stakanning sirtidan yalab yurgan.**

Mirkamol haftaning olti kuni qishloq bozorlarida sang'ib **“o'sma ket, surma ket”** qilib yuradi. Shanba kuni Ko'kterakda, yakshanba kuni Turvatda, dushanba kuni To'ytepada, seshanba kuni O'rtasaroyda, chorshanba kuni Toshkentda, payshanba kuni Parkentda, juma kuni Jumabozorda bo'ladi. Uning bisotida hamma narsa bor. **Lampa pilik, o'ldirilgan simob, oshiqni ma'shuqqa, ma'shuqni oshiqqa isitmasovutma duo, igna, saqich, makkai sano, har xil tumor, xun dori, ezib ichkilar mozi, tish qoli, burga dori va hokazolar. ..**

Dehqonlar o'rtasida o'z ko'nglicha tabibgarchilik ham qiladi. **Zuluk soladi, qortiq qo'yadi, qon oladi, malham beradi, surgi ichiradi, simob yutqizadi. Xullasi, u “boqqan” kasallar ikkili: yo o'ladi, yo qoladi.**

Shunday qilib, u haftada bir kun, atigi chorshanba kunigina uyida bo'ladi. Xotini Zamira haftaning olti kuni tor uyida yolg'iz qoladi.

Kunlardan bir kun Zamira toqi eriga yig'lab shikoyat qildi:

-Hoy er, siz axir **ermisiz, qora ermisiz**, bu qurigan-qaqshagan uyda yolg'iz qolaverib, jinni bo'lay dedim-ku. Nima qiladi, menga rahmingiz kelib, biror qo'ymi, tanami olib kelsangiz. Axir ul ham tirik jon-ku. Yolg'izligimda shuni boqib, shu bilan ovunib, yo'qligingizni oz bo'lsa ham unutsam.

Mirkamol quruqqa bu gap ma'qul tushdi.

-Durust, -dedi u tirjayib, qolgan-qutganlarni, qo'ni-qo'shnidan chiqqan qovun po'choqlarni eb semirsa, xiyla daromad ham bular ekan.

Mirkamol quruq gapida turdi. Endigi chorshanbu ortiq bir shishak qo'yni etti tangaga olib, xotiniga keltirib berdi.

Xotini g'oyatda quvondi. Qo'yni yakka qoziq qilib, jazirama hovlining o'rtasiga bog'ladilar. Mirkamol qilgan ishidan quvonib, chorbozorga qarab yo'rtib qoldi.

Zamiraning baxtiga bu qo'y harom o'lgur tinimsiz ma'rar, o'qchib-o'qchib yo'talar edi. Xumdagi qotgan non, kepaklar hademay tamom bo'ldi. Qo'ni-qo'shnilardan chiqadigan **nishxo'rlar ham tovsilladi**. Qo'y tinimsiz ma'rar, yo'talar edi.

Bu bedavo tirik jondan Zamiraning **holiga maymunlar yig'laydigan bo'ldi**. Kelasi chorshanbu eri kelganda, salom-alikdan ham ilgari:

-Hoy er, siz bu hayvonni meni **o'limimdan besh kun burun go'rga tiqish** uchun olib bergan ekansiz, hoziroq yo'qoting, bo'lmasa ajrashamiz, otamnikiga ketaman, -dedi.

-Sabr qil, -dedi Mirkamol quruq, -bir ilojini toparmiz.

O'sha kuni Mirkamol yo'l-yo'lakay otasiga qur'on o'qish uchun Shigaiddin buva mozoriga kirib, bunda belbog' bo'yi o'sgan o'tlarni ko'rgandi. Shuni esladi-yu, xayoli tez ishladi. Qo'yni qoziqdan echib, mozorga etakladi. To'g'ri go'rkovga uchrashdi.

-Assalom alaykum! .

-Vaalaykum assalom!

-Uka, -dedi Mirkamol go'rkovga, -men befarzand kishiman. Qarib qoldim. O'lsam netsam inshoollo, o'zing ko'marsan. Illo, mendan xabar olib, go'rkov haqi to'laydigan vorislarim yo'q. Mana shu qo'yni menga qaziydigan go'r va ko'mish xarajatlari haqi uchun hozirdan naqd olib qo'y.

Bu go'rkovga ma'qul tushdi. Fotiha o'qib rozi bo'lishdilar.

Oradan ikki oycha o'tdi. Yana bir falokat bilan mozorga yo'li tushgan Mirkamol quruq o'z qo'yini ko'rib qoldi. Katta bo'rdoqiga aylanib ketipdi. Oz deganda bir yarim pud yog'i bor. Mirkamolning xayoli yana tez ishlab ketdi. "Iya, -dedi u, -shunday qo'yni tekidan tekin o'lmagan jonimga qasd qilib birovga berib qo'yamanmi, ajratib olish kerak". Shoshilib borib, go'rkovning eshigini taqillatdi. Go'rkov chiqdi.

-Assalom alaykum!

-Vaalaykum assalom!

-Xizmat, keling Mirkamol aka, tinchlikmi?

-**Tinchlik bo'lmay o'lsin**, -dedi Mirkamol. -Qoplonbek qishlog'ida bir qizamiq chiqqan bolaga yarim qoshiqqina simob ichirgan edim, o'lib qolibdi. Shunga oq poshshoning hokimlari meni Toshkentdan O'ratepaga badarg'a qiladigan bo'lib qolishdi. Bir siqim tuprog'im o'sha erda qoladigan ko'rinadi. Mazam yo'q, qarib qoldim. Besh kunligim bormi, yo'qmi, qani yur, uka, yuqingni tang'i, birga ketamiz.

-Qaerga, men nima qilaman?

-Qaerga bo'lardi. Badarg'aga, O'ratepaga-da. Sen axir, meni ko'mishning udda

kafilini olib, xizmat haqingga qo'y olgansan. Qaerda o'lsam, o'sha erga borib ko'mib kelasan.

Voy-bo', qo'ying boshingni esin, ko'taril-e...

-Bo'lmasa qo'yni qaytar?

Go'rkov semiz qo'yni etaklab chiqib Mirkamol quruqqa berdi. Mirkamol g'oyat mamnun. O'z aqliga o'zi tasanno o'qir edi.

Mirkamol quruq qo'yni so'yib edimi, sotdimi, bunisi bizga ma'lum emas.

G'afur G'ulomning mashxur qiziqchi Yusuf qiziq Shakarjonov haqida keltirgan tafsilotlari ham diqqat-e'tiborni tortadi.

Yusuf qiziq Shakarjonov -1868 yilda tug'ilib, 1959 yilda -91 yoshida vafot etdi. Bir narsani qayd qilib o'tish kerakki, qiziqchilarimizning ko'pchiligi: Isaxon askiya ham, uning o'g'li Sayidahmad askiya ham, Abdulla fonuschi ham, Yusufjon qiziq ham uzoq yashab o'tgan kishilar. Bu erda kulish, vaqi-chog'likning uzoq umr ko'rish sabablaridan biri ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Yusufjon qiziq o'z ijodi bilan ruhoniylar, boylar, katta er egalari, chor chinovniklari, mahalliy amaldorlar va bosmachilarga qarshi kurashgan qo'rqmas bir zotdir. Mana uning ikki hangamasi bilan tanishing.

Talantli adib qiziqchining **"Bek kulolmadi"** nomli hajviyasining to'la matnini beradi.

"Farg'onaning eng qonxo'r bosmachilaridan biri Madaminbek edi. Madaminbekda **qashqir yovvoyiligi, tulki riyokorligi bor edi**. Bir necha martaba ahvoli tang kelib, hech ish qilish qo'lidan kelmasligiga aqli etganda sho'ro hukumati bilan yarashib ham ko'rdi. Sag'al ishonch paydo qilgach, yana **tulkilikka o'tib aynadi, qirg'in ishini qashqirday davom ettirdi** va nihoyat qizil qo'shinlar tomonidan tor-mor keltirildi, o'zi quturgan itdek otib tashlandi...

Kunlardan bir kun, yon-beridagi qishloqlarni talon-toroj qilib, keksalarni, xotinlarni, bolalarni otib, chopib, yosh qizlar, yosh yigitlarni bandi qilib charchagan Madaminbek Toshloqning bir pana qishlog'ida, katta jomening xonaqosida yaqin yigitlari bilan ham **go'sht eyishdan charchagan urg'ochi qashqirday** dam olib yotardi. Ko'ngli hech nima bilan ravshan bo'lmasdi. Na ichkilikdan, va o'lja

sanashdan, na bandi bolalarni o'ynatishdan, bandi qizlarni bulg'ashdan-hech nimadan ko'ngli ravshan bo'lmasdi. **Quduq tubiday zulmat bosgan** ko'nglini qanday qilib yupantirishni bilmas edi. Nihoyat, xizmatidagi yigit og'alarini chaqirib:

-Oltita yaxshi qurollangan yigit bilan vahima solib, Marg'ilonga tushib boringlar, Yusuf qiziqni qaydan bo'lmasin tutib keltiringlar!-deb buyruq berdi.

Mauzer, besh otarlar bilan qurollangan yigitlar uch soatlardan keyin Yusuf qiziqni keltirdilar. Yigitlar qiziq ustidan haqoratlab kulish uchun uni oriq, yalang'och bir baytalga mindirib, ikki oyog'ini otning qorni tagidan bog'lab olib kelgan edilar. Bechora qiziq o'lar holatga etgan edi.

-Ha qiziq, -dedi zaharxanda bilan Madaminbek, -yigit yubormasam yo'qlab ham kelmaysan. Oqibat shu bo'ldimi?

-Yigitlaringizga ham bo'y bermas edim. Ammo ammangizni yuborgan ekansiz, u kishining yuzlaridan o'tolmay kelishga majbur bo'ldim, -deb baytalga ishorat qildi Yusufjon qiziq.

Har ko'zi g'ayin olxo'ridek qinidan chiqib ketgan bek qiziqqa xo'mrayib qarab dedi:

-Nega so'qqayib turibsan, ketmon dasta yutganmisan, o'tir?!

-Ammangizning taroqlari, dedi oriq otning qobirg'alariga ishora qilib Yusuf qiziq, -tagimga tushib qolgan ekan, o'tirolmayman, begim.

-Maynabozchiligingni qo'y, -dedi bek, -bugun uch kundan buyon ichimga chiroq yoqsa yorimaydi. Meni kuldir!

-Qaerda qitig'ingiz ko'p, qitig'laymi?

-Bo'lmagan safsatangni qo'y, qiziq, gaplaringdan gapir.

Yusufjon qiziq bisotidagi bir necha hangamalarni ishga solib ko'rdi. Bek kulmas, **palag'da tuxum yutganday** ko'ngli nari borib, beri kelib o'shshayib o'tirardi.

-Gaplaringni yig'ishtir!-baqirdi bek.

-Yaxshisi, shaharliklar, qishloqilar meni to'g'rimda nima deyapti, shuni aytib ber!

-Buning uchun bitta uzun narvon kerak bo'ladi, -dedi qiziq.

-Nima qilasan?

-Keyin bilasiz.

Bek yigitlariga buyurdi. Bitta uzun narvon topib keldilar. Qiziq narvonni xonaqohning tomiga qo'ydilar. O'zi etaklarini bar urib tomga chiqa boshladi.

-Qayoqqa ketyapsan?-baqirdi bek.

-Hech qayoqqa. Tomdan turib xaloyiq sizni qanday maqtoqlar bilan tilga olayotganini qanday duolar qilayotganini aytib beraman.

Yusuf qiziq tomga chiqib, **ikki soniga shappatilab qishloq xotin-xalajlarining ovozig a'xshatib**, qichqirib hadeb dodlay boshladi.

-Voydod, musulmonlar! Madaminbek itvachchaning dastidan dod! Xudoyo to'rt o'g'lining o'ligi ustida o'tirsin. Bu jallodni umri ado bo'ladigan kuni kelarmikin, ey xudo?! O, askar pochcha, tezroq kelib bu qonxo'rni otib tashlay qolsang-chi... Ho', ko'zlaring qarg'a-quzg'unga em bo'lgur qorxo'r. Voydod, musulmonlar, Madamin o'g'rining dastidan dod!...

Bu nogahoniy harakatni ko'rgan bek va uning yigitlari sarosima bo'lib qolgan edilar. Qishloqning boshqa tomlaridan ham qiziqchining dodiga jo'r ovoz bo'lib dodlar eshitila boshladi.

Nihoyat, o'zini yig'ib olgan bek yigitlariga ishora qilib, qiziqni tomдан tushirishga buyurdi. Ikki-uch yigit narvondan tomga chiqa boshlaganda, qishloq atrofidan otilayotgan o'q va pulemyot ovozi yangrab qoldi. Dovdirab qolgan bek va uning yigitlari apil-tapil o'tlanib qocha boshladilar.

Matndan anglashiladiki, yozuvchi hajviyadagi ohori to'kilmagan xalqona iboralarni ko'plab keltiradi. Natijada asarning badiiy ta'sirchanligi yuksaklikka ko'tariladi.

Birinchi bobda qo'yilgan muammolar yuzasidan quyidagicha qisqa xulosalarga kelish mumkin:

1. G'afur G'ulom buyuk shoir bo'lish bilan birga adabiyotshunoslik, xususan folklorshunoslik sohasida ham ko'plab ishlarni amalga oshirdi. U o'zbek baxshilaridan Ergash Jumanbulbul, Fozil shoir, Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullaev kabi ijodkorlarning repertuari haqida maqolalar yozdi. Ularning, ijodini elga tanitdi va xalq dostonlarini ulardan yozib olib chop qilishda faol harakat qildi.

2. Gʻafur Gʻulom oʻz navbatida ertak, latifa, lof va askiya janrlari haqida ham toʻplovchilik va tadqiqotchilik ishlarini olib bordi. Ayniqsa uning xalq dostonlari haqida bildirgan fikrlari hozirda ham oʻz qimmatini yoʻqotgan emas. Ertak janri, mashhur ertakchi Hasan Xudoyberdi oʻgʻli haqidagi tadqiqotlari ham folklorshunoslikka koʻplab yangiliklar bera oladi.
3. Adibning lof janri haqidagi tadqiqotlari, loflarning mumtoz namunalarini topib ularni tadqiq qilishi fan uchun muayyan yangiliklarni beradi.

Gʻafur Gʻulom askiya va askiyachilar haqida ham qimmatli maʼlumotlar toʻplagan. Isaxon askiya, Abdulla Fonuzchi, Yusufjon qiziq Shakarjonov kabi ijodkorlar biografiyasi va repertuari haqida adib tomonidan keltirilgan maʼlumotlar oʻzining realligi va chuqur ilmiyligi bilan alohida koʻzga tashlanib turadi.

II BOB

G'.G'ULOM ShE'RIYatIDA FOLKLOR AN'ANALARI

2.1. Shoirning xalq iboralaridan foydalanishdagi mahorati.

O'zbek xalqining buyuk shoiri G'.G'ulom keng qamrovli ijodkor bo'lib, she'riyatda, nasrda, dramaturgiyada qalam tebratish bilan birga, jurnalistika sohasida va ilmiy ijodda ham faoliyat ko'rsatdi.

Ayniqsa shoir lirik asarlarida ijtimoiy-falsafiy g'oyalarni targ'ib qildi, o'sha jarayonda she'rlarining ifodali va o'qimishli chiqishida xalq tilining boy leksikasidan unumli foydalandi.

“So'z hayot uchun kerak” deb ta'kidlagan G'afur G'ulom xalq tilining barcha qirralariga murojaat qildi, jonli gaplashuv tili elementlari, xalq nutqi, so'z boyligi, iborasi, obrazlari, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy va oddiy turmushga oid so'zlarni poeziyaga olib kirdi... Shoir tilining ichki tabiatida, nutq manerasida, intonatsiyasida, uslubida, badiiy-tasviriy vositalarida, umuman poetikasida va leksikasida milliylik namoyon bo'ldi”.¹

G'.G'ulom xalq ijodi an'alaridan foydalanish bilan birga o'zbek she'riyatida original tasviriy usullarni kashf qildi. Uning she'riyatida o'xshatish vositasining muayyan tuzilmaga solingan birikmali turlari uchraydiki, bu usul boshqa shoirlar ijodida unchalik ustuvorlik kasb etmaydi.

Shoir o'xshatishni xalq orasidan, hayotiy hodisalardan izlaydi va mayin yumorga yo'g'rilgan butun bir tizimdan iborat tashbehni ro'yobga chiqaradi:

Birinsi sinfdagi to'rtinchi darsdan keyin

Maktabdagi quvonchli katta shovqin-surunday.²

Bunday o'xshatishni xalq orasida azaldan uni kuzatib yurgan, o'zi ham bir vaqtlar o'sha jarayonda ishtirok qilgan ijodkorgina chuqur fahmlab uni badiiy tasvir tomon tortib yangi bir tashbeh yarata oladi.

Shoir ona yurti joylashgan Sharq haqida gapirar ekan, uning go'zalligini ifodalash uchun yana bir salmoqdor jumlagi jo bo'lgan xalqona o'xshatishni yaratadi:

¹ Mamajonov S. Fafur Fulom. // O'zbek adabiyoti tarixi, II tom.-T.; Fan, 1971. B.267.

² Fafur Fulom. Asarlar, III tom.-T.; “Adabiyot va san'at”, 1972. B8. (Bundan keyingi misollarda faqat sahifa qayd etiladi.)

Hindi qizi manglayi o'rtasiga qo'yilgan,

Qizil oltin xol kabi quyosh chiqib gulgun Sharq.

Shoirning mahorati shu erdagi, u misra tarkibida tashbeh tanlaganda o'sha tasviriy ifodani aniqlanmish-aniqlovchi tarzida emas, balki butun bir katta jumlani to'liq idrok qilgandagina tushuniladigan o'xshatishni yuzaga keltiradi:

Toliqmas terimchilar-epchillarni kutadi,

Ko'pirgan qaymoq kabi yalang ochib ko'kragin. (20-bet.)

Bir chini to'p-to'liq qaynoq sut kabi,

Etilgan bir qiz ham shunday kutardi... (21-bet.)

Ushbu tashbehlardagi "ko'pirgan qaymoq", "To'p-to'liq" kabi iboralar shoirning xalq tiliga xos nozik xususiyatlarni chuqur anglay bilishidan darak beradi.

G'.G'ulom tasviriy vositalarni tanlaganda uning xalqona xususiyatlariga, ommaviyligiga alohida e'tibor beradi:

Bitta bug'doy donani qidirgan chumolidek

Azamat xalqim uchun she'r yozmoqchi bo'ldim- (86-bet.)

Atom tegirmonda oq un tortib beruvchi

Qaymoqda yo'g'rilgan bo'g'irsoqdek yuzimiz. (95-bet.)

Misralardagi tasvir vositalariga nazar solsak shoirning turmushdagi oddiygina hodisadan ustalik bilan foydalanib original tashbehtar yaratganiga guvoh bo'lamiz.

Talantli shoirning xalqqa xos iboralari mubolag'ali birikmalardan foydalanganda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Oftob ra'yimiz bilan yo'l oldi,

O'ru qir ko'mildi gulu lolaga.

Ulug' tantanalar yaqinlab qoldi,

Maylar intizordir zar piyolaga. (9-bet.)

Ikki yuz ming yil agar she'r yozsam paxtaga,

So'zim ado bo'lmaydi, bu o'zbeklik nomasi.

Ko'zlarimga oq tushsin, aslo rizo bo'lmayman,

Agar erda chirisa bir chigitning donasi. (87-bet.)

Shoir xalq orasida faol ishlatiladigan turli birikmalarni, leksik birliklarni, iboralarni juda yaxshi biladi. Yuqoridagi ikki misrada ishlatilgan “O‘ru qir” birikmasi buning dalilidir.

Adib o‘zbek xalqining mehnatkashligini, fidoiyligini qalbdan his qiladi. Shu sababli uning mehnatini ta’riflash uchun ertaklarga xos mubolag‘ani qo‘llaydi va “Ikki yuz ming yil” she’r yozganda ham mehnat madhining ado bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Xalqning mehnati isrof bo‘lishiga achinish tuyg‘usini “Ko‘zlarimga oq tushsin”, degan xalqqa xos qasamni ishlatib o‘zining qalb hissini yuksak tarzda ifodalab beradi.

Iste’dodli ijodkor o‘z she’rlarida xalqlar do‘stligini doimo ulug‘lab kelgan. Shunisi xarakterliki, u qaysi bir xalq hayotiga oid she’r yozsa, tasvir vositalarini ham o‘sha xalq turmush tarziga xos ob’ektlardan tanlaydi:

Filday ulug‘ xalqsan, filday chidamli,

Gangday jim oquvchi qodir kuching bor.

Filday ulug‘ xalqning g‘azabi ham cho‘ng,

Gangday jimdir, ammo qo‘rqinch to‘lqinli.

Hind xalqi ta’rifiga bag‘ishlangan ushbu she’rdagi tanlangan tashbehlar mazkur xalqning hayot tarzi va xarakter-xususiyatini ochishda eng muhim vosita sifatida xizmat etadi. She’rdagi “Filday chidamli”, “Qo‘rqinch to‘lqinli”, “Cho‘ng g‘azab”, “Gangday jim” kabi birikmalar hind xalqining milliy xususiyatlariga berilgan haqiqiy baho sifatida ko‘zga tashlanadi.

Shoir she’rlarida xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan takror usuli ko‘p qo‘llaniladi. Bu usul she’rdagi ohangdorlikni kuchaytiradi, unda alliteratsiyaga xos musiqiylikni yuzaga keltiradi:

Hammasining gulgul ochgan chiroyi,

Hammasining qo‘ltig‘ida kitobi,

Hammasining sinflarda o‘z joyi,

Hammasining yarqiroq oftobi. (51-bet.)

Ushbu xususiyatni quyidagi parchada ham ko‘rish mumkin:

Sirdaryodan bu vodiya baxmaldek ko‘klam,

Sirdaryodan gunafshaning bag‘rida shabnam,

Sirdaryodan jonlilarning vujudida nam,

Sirdaryodan minnatdordir o‘zbek, tojik ham. (71-bet.)

She‘riy misralarda takrorlarning qo‘llanilishi ohangdorlik va musiqiylikni yuzaga keltirishidan tashqari shoir fikrini ta‘kidlab bo‘rtirib ko‘rsatishga ham yordam beradi:

Bu erda xalqimizning qudrati bordir,

Bu erda xalqimizning jur‘ati bordir,

Bu erda xalqimizning sur‘ati bordir,

Quyosh tabassumi erda shabcharoq. (99-bet.)

Shoir she‘rlarida xalqqa xos aforizmlarning qayta ishlangan zalvorli ifodalari ko‘p uchraydi;

Do‘ppini erga qo‘yib, va‘da berilgan,

Uni bajarmay qo‘yish, o‘limdan ham qattiqroq, (124-bet.)

Ertasini o‘ylagan-indin bo‘lmas pushaymon,

Fursat kasal emaski o‘tganiga suyunsang,

Minutlar bug‘doy dona, o‘tgan umr tegirmon-

Mehnatgina berolur bu shirmonga ko‘rkam rang. (76-bet.)

G‘.G‘ulom she‘riyatida folklorga xos iboralar, metafora va istioralar ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, uning bolalar uchun ijod qilgan she‘rlarida bu xususiyat juda ustun. U “Turg‘un va o‘rdak” she‘rida yalqovlik va erinchoqlikning zararini xalqona tafakkur yordamida ochib beradi. Hatto she‘rni ertak kabi boshlaydi:

Bir bor ekan, bir yovvoyi o‘rdak bor ekan,

Ko‘m-ko‘k quyuq o‘rmonchada yakkayu yolg‘iz.

Shu yaqinda bir anhorcha, qirg‘og‘i ko‘rkam,

O‘rdak shunda cho‘milarkan, kechayu kunduz.

O‘rdak emishga boy maskanda yashab, baliqlar bilan ovqatlanadi. Bir kuni erinib, ovga bormaydi. Ertasiga esa baliqlar boshqa joyga ketib qoladi. Baliqlar qaytib kelganda esa yana erinib, uxlaydi va och qoladi.

Shoir Turg'unni o'rdakka qiyoslaydi hamda uning erinchoqlikni engib, ilg'or o'quvchi bo'lib etishganini bayon qiladi:

Bizning Turg'un o'rdak kabi umidsiz emas,

Qiyinlikni engoluvchi yaxshi fe'li bor.

Bir umtilish yanglishtirsa tinmay har nafas

Qayta-qayta g'ayrat bilan yana umtilar.

O'tgan yili bir sinfdan o'tolmay qoldi,

Simobday sho'x o'yinqaroq edi o'zi ham.

Bu mavsumda butun kuchin o'qishga soldi.

Do'stlaridan qoloq ekan, etoldi kam-kam.

Shunday ulug' zo'r bayramda o'quvchi Turg'un

Bir sinfdan oshganligin raport beradi.

Boshqa yalqov, kamhafsala o'rtoqlarini

O'zi bilan tenglashuvga shahd chaqiradi:

-O'rdak kabi bo'lmay,-deydi,-hay, yosh o'rtoqlar,

Bir zo'r bersak har qoloqlik orqada qolar!

Shoir ayrim she'rlarini xalq orasidagi bolalar qo'shig'i uslubida yozib, takrorlardan, alliteratsiya-tovush uyg'unligidan foydalanadi.

O'z yurtimiz, bog'imiz,

O'z vodiymiz, tog'imiz,

O'z qutli charog'imiz

Hamisha bo'lur omon.

Kaptar uchar, g'oz uchar,

Samolyot ko'p soz uchar,

Yulduzcha qog'oz uchar,

Bu-tinchlik yulduzidir.

Bu xususiyatni "Bir g'uncha ochilguncha" she'rida ham ko'rish mumkin:

Har narsada intizom,

Har ishda bir qoida,

Harakatda aniqlik

Ikki karra ikkiday.
Shu mustahkam tartiblar
Biz yashagan jahonda.
Qofiya, vaznu ilhom
Shoirda kerak juda;
Shabnam kabi tiniqlik,
Shafaqlarda qolguday,
She'rga ko'chsa agar
So'zing qolmas armonda.

“Ko'klam kelar, yoz kelar” shoir ertaklardagi saj' usulidan foydalanib, ravon va quvnoq misralarni yaratadi:

Bor ekanu yo'q ekan,
Och ekanu to'q ekan,
Bo'ri bakovul ekan,
Tulki yasovul ekan,
Qirg'ovul qizil ekan,
Dumlari uzun ekan,
Qarg'a qaqimchi ekan,
Chumchuq chaqimchi ekan,
Degan eski gap bilan,
O'ngi qolib chap bilan,
Sizni yupatish uchun,
Yarmi yolg'on, yarmi chin
She'rni tizib ketsam,
Baliqdek suzib ketsam,
Sizlarni qoyil qilsam,
So'zimga moyil qilsam.

O'z navbatida bolalar qo'shiqlaridagi sonlarni, raqamlarni takrorlash usuli ham ushbu she'rda yaqqol ko'zga tashlanadi:

Bir, ikki, o'n olti,

O‘n olti deb kim aytdi?

O‘n olti deb aytguncha,

Imtihon vaqti etdi.

“Men so‘ray, siz javob bering” she‘rida shoir topishmoq usuliga murojaat qiladi:

Osmon to‘la uchar g‘oz,

Qanoti oppoq qog‘oz,

Tez uchar baland parvoz,

Ko‘rinishi juda soz,

Yuragida kiri yo‘q,

Kiri tugul siri yo‘q,

Shuni toping, do‘stlarim?

-Tinchlikni kaptari,- deb

Chuvillashar bolalar.

O‘zi momiqdakkina,

Qorni yostiqdakkina,

Yuzi do‘ndiqdakkina,

Qo‘yni sandiqdakkina,

O‘rmonda bo‘lsa kerak,

Sovg‘alar bersa kerak,

Taniysizmi do‘stlarim?

-Taniymiz, qorbobo,-deb

Chuvillashar bolalar.

Umuman olganda, G‘.G‘ulomning bolalar uchun yozgan she‘rlari folklorga xos uslub, xalqona iboralar, xalqqa xos tashbehlar va turli iboralarga boyligi bilan alohida ko‘zga tashlanib turadi. Shu sababli bu she‘rlar hozirgacha bolalar tilidan tushmay kelayotir.

Zotan, G‘afur G‘ulom she‘rlarida hayot nafasi ufurib turadi. U xalqqa xos ifodalarni millat bisotidan terib, olib, uni pardoqlab, yana o‘z egasiga qaytarib beruvchi so‘z zargaridir.

G‘.G‘ulom o‘tgan asrning 30-yillarida tojikistonlik dramaturg Boris Slivkoning

“Mushfiqiy” dramasini erkin tarjima qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu bahonada drama uchun qator qo‘shiqlar yozadi. Biroq, bu tarjima teatr sahnasiga chiqmasdan qolib ketadi.

Abdurahmon Mushfiqiy buxorolik shoir bo‘lib, 1525 -1588 yillarda yashab ijod qiladi.

Shoir Samarqand hokimi Sulton Said Saroyida kitobdorlik qiladi. Keyin Hindistonda Akbarshoh saroyida, so‘ng Buxoroda Abdullaxon saroyida xizmat qiladi. Uning “Devoni g‘azaliyot”, “Devoni qasoid” kabi kitoblari bizgacha etib kelgan. Shoir ijodidan yumorga yo‘g‘rilgan she‘rlar ko‘plab o‘rin olgan va xalq orasida keng tarqalgan. O‘zi Mulla Mushfiqiy nomi bilan tojik xalq latifalari qahramoniga aylanib ketgan.

G‘.G‘ulom drama uchun qo‘shiqlar yozar ekan, shoir xarakteriga mos detallarni tanlaydi, o‘sha zamonaga mos xalq qo‘shiqlari ruhiga monand misralarni ijod qilishga harakat qiladi.

Jumladan, shoir Mushfiqiy qo‘shig‘ini shunday boshlaydi:

Abdullaxon xon bo‘ldi,

Yutganimiz qon bo‘ldi.

Zamona kajligidan yaqolar bo‘ldi etak,

Bo‘z paytava bo‘ldi, boshga chiqdi patak.

Bolalarga ko‘moch kerak,

Hech bo‘lmasa o‘moch kerak.

Mushfiqiyning sevgilisi Qumri tilidan aytilgan qo‘shiqlarda ham xalqona ohanglar bo‘rtib turadi:

Sevgan yorim barnolarning barnosi,

Elu yurtning maslahatgo‘ donosi,

Hazil chog‘i, rasvolarning rasvosi,

Mushfiqiyjon, shirin so‘zim o‘zingsan.

Dramada ishtirok etuvchi A‘zam tilidan bitilgan qo‘shiqning esa bevosita xalq ijodidan olinganiga guvoh bo‘lamiz:

Olmali boqqa kirib,

Shaftolini ermu kishi,
O'z yori uyda turib,
Begonani dermu kishi.

Hamdam qo'shig'i nomi ostida berilgan she'rga razm solinsa, uning xalq qo'shiqlariga xos uslubidan tashqari misralaridagi: "Taka bo'lsin-sut bersin", "Pul bo'lsa changalda sho'rva" kabi maqollarning qo'shiq tarkibiga kiritilib yuborilishi, ariyaning badiiy-estetik ta'sirchanligini yanada oshirgan:

Shumg'iyadan bodom mag'zin terganlar,
Taka bo'lsin-suti bo'lsin, deganlar,
G'urrakning ham bolasini otadi
Ovi kelmay qolgan choqda merganlar,
Luqmon emish Ali Husayn Bag'dodin.

Puling bormi, changalimda sho'rvam bor,
Bir qop so'zdan tanga miri e'tibor,
Bo'sh aylangan tegirmondan, do'stlarim,
Kiprigingga qo'nmaydi gardi g'ubor,
Hakim emish Ali Husayn Bag'dodiy.

Aqlim butun, maslahatgo'y kerakmas,
Tanim ham sog', o'pka, jigar va nafas,
Menga, bunday ahmoqlarning mingidan
Jaraqlagan oltin tanga bo'lsa bas.
Dono emish Ali Husayn Bag'dodiy.

Hamyoningni ters ag'darib to'kib qo'y,
Tuya kabi ta'zim qilib cho'kib qo'y,
Podshohga arziguday sovg'ani
Topolmasa, Hamdamjonni so'kib qo'y,
Ahmoq emish Ali Husayn Bag'dodiy.

Turkum qo'shiqlar orasida "Qassob qo'shig'i" alohida ajralib turadi. Unda qassobning maqtonchoqligi, g'irromligi o'z nutqi orqali yumoristik lavhalarda mahorat bilan aks ettiriladi:

Ming qo'radan bitta qo'yni tanlab so'ydim,
Kanoramga oyog'idan osib qo'ydim.
Sho'rvasidan ichmay turib o'zim to'ydim,
Olgan xursand, olmaganlar armon bo'lur.
Yuzi qaro bo'lar emish aldamchilar,
Qayrab tursam pichog'imdan moy tomchilar,
Keling tezroq yamoqchilar, hammomchilar,
Echki go'shti yo'qdir, desam, yolg'on bo'lur.

Chaksa desam, sakson paysa ham chiqmasa,
Odam desam, eritganda nam chiqmasa,
Go'sht olsangiz suyak undan kam chiqmasa,
Dasturxonda duo qiling, arzon bo'lur.

"Mushfiqiy" komediyasi uchun yozilgan qo'shiqlardagi tasvir vositalari ham har jihatdan xalq lirikasidagi poetik unsurlarga mos keladi. Masalan, Oftob qo'shig'idan olingan parchaga razm solaylik:

Tishim-inju, labim –yoqut, so'zim-dur,
Porlab turgan olmos pora ko'zimdur.

Binobarin, G'.G'ulomning ushbu turkum qo'shiqlarida xalq lirikasiga xos uslub va badiiyatdagi hamohanglik shoiming folklordan foydalanishdagi mahoratining yana bir qirrasini namoyon qiladi.

2.2. Adib she'riyatida paremik janrlar va olqish hamda qarg'ashlardan foydalanish tamoyillari

G'.G'ulom she'riy asarlarida ham xalq iboralariga va paremik janrlarga katta e'tibor berdi. Bu borada u xalq tilining nozik nuqtalariga e'tiborni jalb qildi. "G'.G'ulom xalq tilidan foydalanish bilan birga uni ishlashda, o'zbek adabiy tilini boyitishda ham katta hissa qo'shdi. Buning uchun u adabiy faoliyatining ilk

yillaridayoq xalq tilining turli doiralariga murojaat qildi, ulardan foydalanib, jilolab adabiy tilga kiritishga intildi. Bu vazifani bajarish maqsadida u o‘ttizinchi yillar boshida yaratgan hikoya, ocherk, she‘r va poemalarida maishiy-etnografik so‘zlardan tortib xalq maqollari va ifodalarigacha turli tabaqalarning uchuruq va qochiriqlaridan tortib g‘ayri ahloqiy so‘zlar, qarg‘ish va so‘kishlarigacha, iste‘moldan chiqqan so‘zlar (arxaizm)dan tortib yangi so‘z yaratish (neologizm)gacha, shevachilik (dialektlar)dan tortib, chet til elementlari (varvarizm)gacha internatsional so‘zlardan tortib texnologik va ilmiy terminlargacha-hammasini ishlatadi. U xalq tili boyliklari-so‘z fondi, leksik va grammatik boyliklarni adabiy tilga keng ravishda tortish niyatida dastlabki hikoyalarini asar qahramoni (ko‘pincha salbiy obraz) tilidan gapirtirdi”¹.

Talantli adib xalq tilini chuqur bilganligidan uning bisotidagi turfa iboralardan ustalik bilan foydalanadi.

Quloq girdobga o‘xshar, har istagan cho‘pu has

Unga kirishi mumkin, egasi beixtiyor.

Choyxonaga mast kirdi, o‘shqirgan ajdar nafas.

Choyga pashsha tushganday suhbatga cho‘kdi g‘ubor.

Allatoplarga qadar gaplar gapga qovushmay,

O‘rtaga tuya cho‘kib, afsus, o‘kinish qoldi.

Shunchalik shirin suhbat, uzoq umrday mo‘may

Taqqa to‘xtab qolganda Normat degrez yo‘taldi:

-So‘z qaerga keluvdi?

Qo‘ying o‘sha koskini,

Otasin tekin puli o‘g‘lini quturtirdi.

Boston, sheviyot berkitar iflos tanu qo‘sqini...

Chaqarlik Yunus hofiz so‘zning oqimin burdi:

-Bu yil tokda **shira yo‘q, chillaki urdi chumak,**

Kenjatoyini o‘ylayman, xarajati tap-tayyor... (“Bir salomning kuchi” she‘ridan)

¹ H.Yoqubov. Fafur Fulom hayoti va ijodi. T.: 1959. –B.106

Shoir ayrim she'rlarida xalq iboralaridan foydalangan holda hayotdagi ayrim illatlarni fosh qiladi:

Mahallada ushlendi bir poraxo'r,
Harom zuluk, muttaham, koski, qonxo'r.
O'n besh kishi qo'lni qo'ygan, katta akt,
Uchastkavoy aytar: "Etishmaydi fakt".
Sudya aytar: "Uchrang prokurorga",
Prokuror jo'natar alla go'rga,

Otangga bor-ho, onangga boru

Onangga bor-ho, otangga bor! (Onangga bor-ho, otangga bor! she'ridan)

Quyidagi she'rda ham ushbu hususiyatni ko'rish mumkin:

Dala-tuzda baxmal kabi ko'm-ko'k bahor,
Dala ishin qizitmoqqa zo'r e'tibor,
Osmon esa, vijdon kabi pok beg'ubor.
Oramizda, ammo, shunday kishilar bor:

-Aravamning orqasidan san itar,

Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar. ("Kimga ne kelur?" she'ridan)

Ushbu parchadagi ta'kidlab ko'rsatilgan iboralar xalq tilida faol ishlatiladigan xalqchil birikmalardir. G'afur G'ulom ushbu iboralarni o'z she'rlari tarkibiga kiritib adabiy tilning boyishiga o'z hissasini qo'shgan.

Quyidagi keltirilgan parchalarda ham ushbu xususiyatni ko'rish mumkin:

Ming bir bahonani qilsa ham takror,
Bu bizningcha, **oddiy arpa** uni-ku!

("Qish" she'ridan)

Er qattiq, osmon yiroq, to'zg'ib ketgan oshiyon.

Dardi yo'q kesakdir, ishqiy yo'q eshak... ("Xotin" she'ridan")

Qo'chqor bo'laturgan qo'zichoqlarning

Manglayi tug'ilgan choqda do'ng bo'lur.

G'alaba asrimizning o'smirlarisiz-

Sherbachcha qilig'i sherday cho'ng bo'lur. ("Oltin medal"dan)

Shoshgan qiz yolchimas erga-deganlar...

Humoyun ovlaydi shoshmas merganlar.

(“Avval o‘qi”dan.)

Yakka otning yo'rg'asidan chiqarmi chang...

Oziqlik ot horimaydi...

Sayil ham sayil, sargardon ham...

Katta xirmon qizillansa, chiqmas chori... (“Ko‘kan”dan)

Mazkur keltirilgan parchalarda xalq orasidagi iboralar bilan birga maqollar ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Ushbu ibora va maqollardan foydalanish she'rning badiiy estetik ta'sirchanligini yuksak darajaga ko'taradi.

G'afur G'ulom she'riyatida maqollarning to'la shaklidan foydalanish bilan birga ularning mazmuniga mos ifodalar yaratishda ham mahorat bilan ish ko'radi:

Jumla olam yig'ilib, bittadan g'isht qo'ysa bas,

Qadam-qadam yuksalib quyoshga zina bo'lur.

(“Porloq istiqbol uchun” she'ridan)

Jahonda sevgisiz yashamoq qiyin,

Sevgan yor g'unchaday tovlanar dilda.

(“G'urur va qudrat tongida”she'ridan)

Jonivor eganin to'lar, demishlar...

(“Qaymoqday she'r”she'ridan)

Ushbu parchalarda “Toma-toma ko'l bo'lur”, “Ishqsiz eshak”, “Ekkaningni o'rasan” kabi maqollar mazmuni asosida g'oyaviy yuksak misralar ro'yobga chiqqan. Talantli adib o'z she'rlarida olqish va qarg'ishlarga ham murojaat qiladi:

Umringiz ko'kida oftob balqisin, (“Soldatlarga” she'ridan)

Sadag'a bo'lib ketay g'alaba qadamiga.

(“ Ikki million” she'ridan)

Ko'zlarimga oq tushsin, aslo rizo bo'lmayman. (O'sha she'rdan.)

Talantli adib asarlariga xos yana bir xususiyat borki, ba'zan ijodkor o'z asarini boshlaganda xalq ijodiga xos muqaddimalar uslubiga murojaat qiladi:

Qirq yil nari qayg‘usini tashlayman,
Qah-qah urib hikoyamni boshlayman.
Kimki dushman-ko‘zlarini yoshlayman,
Yosh nimadan, terisini oshlayman,
Quloq soling, azizlarim, do‘stlarim. (“Biz kulamiz” she’ridan.)
Bir bor ekan, Sharif degan bola bor ekan
Ko‘chalari asfalt bo‘lgan katta shaharda. (Sharif degan bola she’ridan.)
Ushbu xususiyatni “Shoir Habibiy tilidan” she’rida ham ko‘rish mumkin:
Yoshligimda Xo‘tan ariq suvin ichdim,
Etigimni o‘tdan-suvdan qo‘rqmay kechdim,
Qo‘shiq yozish hunarini ezib ichdim,
Shu sababdan etmish yoshga kirdim mano.

Mazkur misralar xalqchil uslubda yozilgan Ahmad Yassaviy she’rlariga hamohang keladi.

Shoirning ayrim she’rlarida xalq qo‘shiqlari uslubi o‘zini namoyon qilib turadi:
Ko‘klam oldi yoz bo‘ldi,
Er etilib soz bo‘ldi,
Kim o‘zlarga qo‘l qo‘ysak
Tilladan qog‘oz bo‘ldi. (“Yoz bo‘ldi”)

Adib she’rlariga nazar tashlansa ularda xalq ijodiga xos bo‘lgan turli iboralar, leksik birliklar, paremik janrlar ko‘plab uchraydi. Shoirning xalq ijodiga bo‘lgan hurmatini uning quyiga to‘rtligidan ham bilsa bo‘ladi:

Yigitlik so‘nggida Majnun bo‘lsam,
Ulug‘ doston aro mazmun bo‘lsam,
Chunonchi Vomiq Uzro bo‘lolmas,
Chunonchi Tohiru Zuhro bo‘lolsam.

Binobarin, ijodkor o‘z she’riyatida xalq so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan ixcham iboralar, maqol va matallar, olqish va qarg‘ishlarni ishlatar ekan, asosiy e’tiborni ularning ta’sirchanlik meyyorini yuksaltirishga qaratadi.

Ikkinchi bobdagi muammolarni tahlil qilib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Shoir o'z she'riyatida xalq tilining barcha qirralariga murojaat qildi. Uning she'rlarida xalq so'zlashuv tiliga xos mubolag'alar, kesatishlar, da'vat va etirozlar juda ko'plab uchraydi. G'afur G'ulom o'xshatish, sifatlash usullarida ham xalqqa xos bo'lgan qiyoslashlardan unumli foydalanadi.
2. Bolalar uchun yozga she'rlarida shoir xalq ijodiga ayniqsa ko'proq murojaat qiladi. Ertaklarga xos bo'lgan tasvir usuliga tayanib, xatto ertaklarga xos boshlanma, tugallanmalarni o'ziga xos tarzda qo'llaydi. Natijada she'rning ta'sir kuchi, ommaviyligi, soddaligi o'quvchi diqqatini o'ziga tezroq jalb qiladi.
3. Adib she'riy asarlarida dostonlarga, qo'shiqlarga xos tasvir usuliga ham katta e'tibor qaratgan. She'rlari tarkibiga olqishlar, qarg'ishlardan na'munalar kiritib o'z fikrini xalqona ifodalashga harakat qilgan. Hajviy she'rlarida bu xususiyat ayniqsa bo'rtib ko'rinadi. Halqqa xos iboralar, maqol va matallar shoir asarlarida o'ziga xos bezak bo'lib xizmat etadi.

III BOB

G‘AFUR G‘ULOM NASRI VA XALQ OG‘ZAKI IJODIYO‘TI

3.1. “Shum bola” qissasi va xalq ijodiyoti.

G‘afur G‘ulom asarlarining xalqchilligi uning har bir asarida bo‘rtib ko‘rinib turadi. Bu borada “Shum bola” qissasi alohida o‘rin tutadi. Qissaning har bir sahifasi xalqona iboralar bilan bezalgan bo‘lib, chuqur hayotiylik kasb etadi. Shum bola shahardan chiqib, sarguzashtlarini boshlar ekan, o‘z safarining boshlanishini shunday ta’riflaydi: “Oldimda bir cho‘li azim paydo bo‘lgan edi: “qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan” bu cho‘lda elkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Ushbu ibora bizlarga ertak va dostonlar orqali juda tanish bo‘lib, qissada ham sarguzashtning mashaqqatli muqaddimasidan darak beradi. Shum bola sarguzashtlarini o‘z tilidan bayon qilar ekan, har bir fikrini ifodalashda turli iboralardan foydalanadi. O‘sha cho‘lda u, dastlab, o‘z do‘sti Omon bilan duch keladi. Ular qayoqqa ketayotganini o‘zlari ham bilishmaydi. Qorong‘i tusha boshlaydi. Yotar-turarga joy yo‘q. Omon dovdirab qoladi. Do‘stining o‘sha paytdagi holatini Shum bola: “It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi” tarzida bayon qiladi. Ikki do‘st tasodifan o‘g‘rilar guruhiga duch kelishadi. O‘g‘rilarning turqi-tarovatini ko‘rib, Omonning tahlikaga tushgani shunday beriladi: “Bularni ko‘rishi bilanoq, Omonning chaynagani og‘zida, yutgani bo‘g‘zida qolib, menga baqrayib qaradi”.

Sarguzasht davomida ular bitta sahroyi o‘zbekka duch kelishadi. Bolalar unga o‘zlarini madrasa talabalari, savodxon mullavachchalar tarzida tanishtiradilar. Bu kishi janoza uchun mulla izlab yurgan bo‘ladi. O‘sha holat: «O‘zbek danak topgan tentakdek juda quvonib ketdi” iborasi orqali ifoda etiladi. Omonning qo‘rqqanidan kasal bo‘lib, shalpayib qolishi haqida so‘z ketar ekan, Shum bola unga gap qotadi: “Tur endi, uyat ish qilib qo‘ygan boladay serrayib o‘tirma”.

Shum bola o‘zining xatti-harakatlarini ham turli iboralar orqali ifodalab boradi. Ho‘kizning o‘rniga eshakni so‘yib, qo‘rqqanidan juftakni rostlaganini ketma-ket uchta ibora bilan bayon qiladi:

“Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to‘rt tomonga alanglab, o‘ziga bir najot yo‘li qidirar edim”. “Zinadan chiqqan itdek to‘rt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim”. “Ora-chorada tor ko‘chalar yo‘limni to‘sib qolsa, tulki quvlagan tovuqday

sakrab ketar edim”.

Shum bola och qolib ketganini, tandirning ichida qisilib yotganini, o’sha lavhada ikki oshiq-ma’shuqning sirli uchrashuvga chiqqanini va ularning suhbatini juda maroqli iboralar vositasida bayon etadi:

“Piyozdog‘ning hidlari dimog‘imga kirib, ishtaha ham namozshom gulning karnayiday ochilib ketgan. Men, bechora qopga solingan pakkiday zindonda yotar edim. Ularning so‘zlashgan gaplari qulog‘imga xumga tushgan arining ovoziday g‘o‘ng‘g‘ir-g‘o‘ng‘g‘ir eshitilar edi. Do‘konga nos olgani borsam, juda it xo‘mrayishi bilan qarab, bergan nosiga nosqovog‘im yarim ham bo‘lmadi.

-Govurting bormi? Xotin engsiz nimchasini paypaslab, gugurtni olib chaqdi, bir chekkasi ko‘ylak-ishtonim eshakning qoni, ikkinchidan, mo‘rining qorakuyasi basharamga urgan. Surra to‘n kiygan eshonday bo‘lib ketgan edim.

Shuning bilan “yopiqli qozon-yopiqlik”, meni chiqarib, chiqishimda “Tuya ko‘rdingmi-yo‘q” qilib menga qasam ichirdilar. Men o’sha olag‘ovur ichida selda qolgan chumoliday beixtiyor edim, gangib yurar va noiloj bo‘g‘ilar edim.

Shum bolaning sarguzashtlari xuddi ertakdagiday davom etadi. Uning har bir harakati o‘quvchida beixtiyor kulgu qo‘zg‘aydi. U o’sha davrda har odimda uchraydigan qalandarlar hayoti, o‘zining Hoji bobo dargohidagi turmush tarzi, bangilarning ayanchli hayoti, ularga xizmat qilishning o‘ziga xos nozik tomonlari, adolat, haqiqat, diyonat, xiyonat o‘g‘irlik, shafqatsizlik kabi turli hayotiy masalalarga o‘zining munosabati eng tesha tegmagan iboralar yordamida hikoya qilinadi:

“Qalandardan oldinda otliq mo‘ylovlari arqon tishlagan itday katta qilichi otning belidan pastga tushib turgan bir gorodovoy qamchi o‘ynatib, olomonning orasini yorib qalandalarga yo‘l bo‘shattirib kelar edi. Chidab turolmadim. Go‘yo yuragimga osmondan bir nur tushdi, badanim erigan qo‘rg‘oshinday iztirobga keldi. Chindan ham bo‘zchining mokisidek eshonning ichkari-tashqarisi o‘rtasida bepul oyoqdan horib hatnab yurishdan ko‘ra, havoyigina bozorda ashula aytib o‘ynab yurib pul topishga ne etsin.

Shu kundan boshlab ichkari-tashqariga mokiday qatnay boshladim”.

Shunday qilib, G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasida xalq ijodiyoti bilan bog‘liq

ko‘plab iboralar, ishlatilganki, ularning voqeaga mos holda fikr ifodasini kuchaytirish maqsadida ishlatilishi badiiy nutq barkamolligini oshirishda, asar tilining sodda va bo‘yoqdor chiqishida asosiy omil bo‘lib xizmat etgan.

Har bir ijodkor o‘z asarida xalq orasida tarqalgan turli iboralar, maqol va matallarga befarq qaramaydi. Badiiy nutq jarayonida ulardan o‘rni bilan foydalanib fikriy ustuvorlikni ta‘minlaydi. Bu borada G‘.G‘ulom asarlari alohida ajralib turadi.

G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarini xalq ijodiyoti xazinasida deb atasa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki asar bosh qahramonining sarguzashtlari boshdan-oyoq xalqona yo‘nalishga ega. Asar tili ham o‘sha xalqona sarguzashtga hamohangdir.

Maqol va matallar asar qahramonlari tilidan har bir vaziyatga qarab, o‘rni bilan qo‘llaniladi. Shum bola o‘z do‘sti Omonning, Omon esa Shum bolaning xarakter-xususiyatlarini turli iboralar, maqollar yordamida ochib berishga harakat qiladilar. Shum bola: “Semizlikni qo‘y ko‘tarar” deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi” degan maqolni ishlatadi.

Domlanning xarakterini ochib berishda o‘g‘rilar boshlig‘ining: “O‘g‘ri qarisa so‘fi, g‘ar qarisa parixon bo‘ladi”, degan maqol, ayniqsa, o‘rinli qo‘llanilgan.

Shum bola o‘zining kaltaklanishida ishlatgan “xizmatga-tuhmat” iborasi va yig‘lab yuborishi qalbni iztirobga soladi.

Asar bosh qahramoni tandir ichiga tushib, “oshiq-ma’shuqalar” siridan ogoh bo‘lgan lavhada barcha voqealardan so‘ng, “Yopiqlik qozon yopiqlik”, “Tuya ko‘rdingmi, yo‘q” maqollari keltirilib, o‘sha erdagi sirning ochilmay qolishi lozimligiga ishora etilgan.

Darbadar yurgan asar qahramoni o‘zining qaerga ketayotganini ham bilmay, iztirob chekib yurganini “Osmon uzoq-er qattiq” maqoli mazmuni bilan oshkor etadi.

Shum bola do‘sti Omon bilan darbadarlik qilib, uzoq sarguzashtlardan keyin, bir joyga kelib yashirinib olishadi. Qorinlari juda och bo‘lib, madordan ketishadi. O‘sha holat “Bo‘sh qop tik turmas” maqoli orqali o‘z ifodasiga ega bo‘ladi. Bu ikki darbadar bola hamisha bir-biriga pand berishga o‘rganib qolishgan, natijada doimo ishlari chappa keladi. Bu ishdan har ikkalasi ham bezib qolishadi. Nihoyat, Shum bola Omonga shunday murojaat qiladi:-Bunday bir-birimizni aldab yurmaylik. Bir ish

bo'lsa maslahatli qilaylik. "Maslahatli to'n tor kelmas". Ushbu murojaatda maqolning ishlatilishi fikr yakuniga juda mos keladi.

Bolalar bunday kelishuvlarga qaramasdan, yana o'zaro pand berishga o'tishadi. Buni Shum bolaning maqol vositasida aytgan quyidagi so'zlari tasdiqlaydi: "Oramizdagi janjal puch yong'oqqa arzimaydigan bo'lsa ham, har ikkalamizdagi o'jarlik o'zimizga etarli edi: qaytib kelishga u or qilar edi, men bo'lsam otdan tushsam ham, egardan tushmas edim.

Qissa Shum bolaning ayanchli ahvolini tasvirlaganligi sababli, gohida bosh qahramon o'z qalb iztiroblarini bayon qilar ekan, yana maqollarga murojaat qilib, dilidagi dardlarini ochib beradi: "Nima qilaman, osmon uzoq, er qatiq. Qilichini ko'tarib, qish kelayotir. Men axir ko'chib ketgan qishloqning tandiri emasman-ku, qishin-yozin og'zimni ochib, esnab o'tirsam. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak".

Asar bosh qahramoni hayotda adashaverib, ancha pishib qolgan. Shu sababli turli kishilar bilan muomalada o'zini juda sergak tutadi. Yo'lda itni etaklab kelayotgan qozoqqa duch kelganda, vaziyatning qaltisligini sezib, o'zini juda beozor qilib ko'rsatish uchun yana xalqona iboralarga tayanib ish ko'radi: "Qiziq odam ekansiz, men itni yoqtirmayman. Qirda kelayotgan kishini bo'lsa tanimayman. Qo'y og'zidan cho'p olmagan xudoning bandasiman. Yo'ldosh bo'lishdan hazar qilsangiz, nima ham qilardim? Zorim bor, zo'rim yo'q, o'zim orqangizdan qora tortib ketaveraman".

Hayotda tasodifiy narsalar ko'p. Qissada arab lashkarboshisi bo'lib elimizga kelgan bosqinchi nomiga muqaddas joy paydo bo'lgani taajjub bilan tilga olinadi: "Otangni o'ldirganga onagni ber", degan murosasiz maqol yuzasidan shaharlarimizni vayron qilgan, ota-bobolarimizni o'ldirgan, xalqimizni yoppasiga qul qiluvchilardan biri bo'lgan Ukkoshaning mozori bu zamonga kelib ziyoratgoh bo'lib qolgan edi".

Ba'zan maqollar qariyalarning nutqida berilib, muloyimlik, odoblilik kabi mazmuni tashishga xizmat qiladi. Shum bolaga tasodifan duch kelgan chol uning etimligini bilib, nasihat tariqasida shunday deydi: "Shunaqa bo'ladi. Ota-ona degan mo'rt keladi. Hay zararsiz. "Yaxshi buzoq ikki enani emibdi", deganidek, o'zing epchil bo'sang, ota topib olasan".

Qissada xalq ommasining qashshoqligi “Tuya bittanga-qani bittanga, tuya ming tanga-mana, ming tanga» maqoli mazmuniga singdirilgan. Qissada maqol va matallardan tashqari, olqishlar, qarg‘ishlar, so‘kishlar, uchiriq so‘zlar, frazeologik iboralar, idiomalar ko‘plab ishlatilganki, ular haqida fikr yuritish galdagi vazifalarimizga kiradi.

Yozuvchining xalqchil uslubi asarning umrboqiyiligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat etgan.

“Shum bola” qissasi va “Latoyifut –tavoyif” asari. «Latoyifut-tavoyif» asarining muallifi XV asrning oxiri va XVI asrning boshida Hirotida yashab ijod qilgan hikoyanavis Faxriddin Alidir. U XV asrda yashab ijod etgan shoir va tarixchi olim Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li bo‘lib, adabiy taxallusi Safiydir. Ali Safiyning «Latoyifut-tavoyif» asarini tarjima qilishda Muhammad Niyoz Komil uning nomini «Latoyifuz-zaroyif» deb ataydi. Natijada «Turli guruhlar haqida latifalar» degan nom «Zarif kishilar haqida latifalar» degan ma’noni anglatishga ko‘chgan. Ushbu kitob 14 bobodan iborat bo‘lib, har bir bobdagi hikoyalar o‘zining mavzusi, g‘oyaviy mazmuniga ko‘ra turli-tumandir. Ushbu kitobdagi hikoyalar o‘zbek mumtoz nasrining taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. O’sha ta’sirlardan bittasi G‘afur G‘ulomning «Shum bola» qissasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misol uchun bitta lavhani keltiramiz:

«Bir badaviy arab ko‘p ochlikdin sahroda bir suvning labig‘a keldi. Ko‘rdiki, yana bir arab non va go’shtdin to‘la bir sanochni orqasidin qo‘yub, sanochdin non, go’sht chiqorib eb o‘lturdi. Badaviy aning yonig‘a kelib o‘lturdi. Ul arab birdan boshin ko‘tarib ko‘rdikim, qarshisida bir arab o‘lturubdur. Ul dedi:

- Ey birodar, qaydin kelursan?

Badaviy dedi:

- Saning qabilangdin kelurman.

Arab dedi:

- Maning manzilimdin o‘tdingmu?

Badaviy dedi:

- Ha, o‘tdim! Ko‘p ma’mur, obodon joy erkan.

Arab dedi:

- Maning bir Buqo' otlig' itim bor erdi. Ani ko'rdingmu?

Badaviy dedi:

- Ko'rdum. Qo'ylaringga ajoyib soqchilik qilibdur, bir millik yo'ldin bo'rilarni o'tkazmaydur.

Arab dedi:

- O'g'lum Xolidni ko'rdingmu?

Badaviy dedi:

- O'g'lung maktabxonada muallimning yonboshida o'tirib, ovoz birlan qur'on o'qib o'tiribdi.

Arab dedi:

- Onosini ko'rdingmu?

Badaviy dedi:

- Ha, ko'rdim. Iffat va kamoli pok va jamol bobida undoq xotun olamda yo'qtur.

Arab dedi:

- Maning obkash tuyamni ko'rdingmu?

Badaviy dedi:

- Ko'rdim. Tuyang g'oyat semiz va tozadurkim, orqasi xurguchiga barobardur.

Arab dedi:

- Qasrimni ko'rdingmu?

Badaviy dedi:

- Ha, ko'rdim. Ayvoni kayvonga hamroh erkan.

Qachonki arab xonimoni qasr va ayvonning omonligini bilib, bo huzur rohat birlan non va go'shtlarni emakka kirishdi . Non va go'shtdin badaviyga hech narsa bermadi. O'zi to'yg'ondin so'ng sanochning og'zini bog'lab qo'ydi. Badaviy ko'rdikim, arabg'a hushomad yuzasidin so'zlagan bul xushxabarlari hech narsa natija bermadi. Badaviy esa bu holdin so'ng yuksak darajada xafa bo'ldi. Arab sanochni ko'tarib ketar chog'da bir it hozir bo'lib qoldi. Arab bir so'ngakni ul itning oldig'a tashlab, ketar bo'lg'anda badaviy toqatsiz bo'lib dedi:

- Agar sening Buqo' otlig' iting o'lmasa erdi. Xuddi shul itga o'xshash erkan.

Arab dedi:

- Buqo' o'ldimu?

Badaviy dedi:

- O'z ko'z oldimda o'ldi.

Arab dedi:

- Ne sabdin o'ldi?

Badaviy dedi:

- U obkash tevangning o'pkasini egan erkan, ko'r bo'lub o'ldi.

Arab dedi:

- Tevag'a ne ofat etishubdur?

Badaviy dedi:

Holidning onasin ta'ziyasida so'yub erdilar.

Arab dedi:

Holidnig onasi dag'i o'ldimu?

Badaviy dedi:

- Ha, o'ldi.

Arab dedi:

- Nachuk o'ldi?

Badaviy dedi:

-Boshini Xolidning go'rig'a urg'on erdi, bosh miyasi ziyon etishib o'ldi.

Arab dedi:

- Xolid dag'i o'ldimu?

Badaviy dedi:

- Qasringning ayvoni yiqilib, Xolid devor ostida qolib o'ldi.

Arab bu dahshatli xabarlarini eshitib, sanochni erga qo'yib, «vovaylo» deb oh va fig'on tortib sahro tarafig'a yugura boshladi. Badaviy non, go'shtni olib, bir chekkaga chiqib, emakka kirishdi».

Endi G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasiga murojaat qilaylik:

«... Etib borib otdan tushdim. Boy shiyfonda nonushta qilib o'tirar ekan. Salom berib, sekingina poygakka cho'kka tushib o'tirdim.

- Xo'sh?!

- Shunday, o'zim kelgan edim.

- Nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor bo'lib yurishda quygan shartim esimga tushib qoldi. Shart qilgan yolg'onni «Endi gapirmasang, qachon gapirasan», -dedim-da:

- Anu, haligi dandon sopliq pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so'zdan keyin menga «innaykeyin» savoli yog'ila boshladi.

- Xo'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi?

- Tozi itingizning terisini shilayotgan edik, suyakka tegib sindi.

- Iyya, -dedi boy, tozining terisini nimaga shildilaring?

- Harom o'lgan otning go'shtidan ko'p eb quygan ekan, bo'kib o'ldi.

- Harom o'lgan ot go'shti qayoqda ekan?

- Xa, to'riq qashqani go'shtini eb o'ldi-da.

Boy alanglab qoldi.

- Xo'sh, to'rik qashqa nima qilib o'ldi?

- Xomlik qilib o'ldi.

- Nimaga xomlik qiladi?

- Hech aravaga qo'shilmagan ekan, biz uni aravaga qo'shib, suv tashigan edik, zo'riqib o'ldi.

- Boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqtirib qo'ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la'natlar!

- Ha, o't tushgandan keyin uloqchiligiga qarab o'tiradimi, duch kelganini qo'shib tashiy beradi-da.

Boyning chaynab turgan yaxna qazini yutishga ham darmoni qolmadi. Og'zidan olib qo'ydi-da, baqraygan ko'zi bilan menga tikilib:

- O'zing jinni-pinni bo'ldingmi? O't tushdi deganing nima deganing, qaerga o't tushdi, nimaga tushadi?

- Sog'man, xo'jayin, og'ilxonaga o't tushdi. Otlarning hammasi nobud bo'lib ketdida, xo'jayin.

Iyya, og'ilxonada o't nima qiladi?

- Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, ombordan o'tgan bo'lsa kerak.

- Axir omborda o't chiqadigan narsa yo'k-ku! Bug'doy bor edi, to'g'ri, guruch bor edi, to'g'ri yog' bor edi, gazmol bor edi, to'g'ri, shulardan o't chiqadimi?

- Berdisini aytguncha shoshmang, xo'jayin, omborga qo'rg'ondan o'tibdi. Og'ilxonaga ombordan o'tgan bo'lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biroviga tutashib ketgan-da.

- Iyya, hali qo'rg'on ham kuydi degin!

-Qo'rg'on ham yondi, ombor ham yondi, og'ilxona ham yondi, otlar ham o'ldi, itingiz ham o'ldi, pichog'ingiz sindi.

- Qo'rg'onga qaerdan o't ketibdi?

- Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

- Hoy, o'zing jinni bo'lib qolibsang, o'g'lim! Axir, mening dargohimda shanga kun qoldimu? Qator-qator lampalar, o'zim Toshkentdan atayin sotib olib kelgan 40-ponarlar qayoqqa ketibdi, kerosin bo'lsa bir yilga etarlik zapas bor. Nimaga sham yoqasanlar?

- Xo'jayin deymang, o'zingiz ham odamni juda xit qilib yuborarsiz-da, butun boshliq o'likning arvofiga sham yoqmay, lampa yoqadimi? Kelgan arvohi nimaning shu'lasi bilan o'ynashadi. Axir kosaga suv quyib, ustiga olma shoxni qo'yadi. Kelgan arvohi avval shoxga qo'nib o'tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shu'lasi bilan o'ynashadi.

Mening entak-tentak so'zlarimdan boy talmovsirab qoldi. gaplarni eshitgasi kelmaganday, sekin. qurqa-pisa so'radi:

- Kim o'ldi?

Shu erda men yuzimga qalbaki qayg'ular chiqarib, ho'ngrab yig'lab yubordim.

- Kenjatoy o'g'lingiz Bo'riboyvachcha, terakka chiqib chumchuq bolasini olaman deb, yiqilib tushibdi, bir marta «dada» dedi-yu, «g'iyq...»etib jon berdi.

Xar ikkala ko'chirmani solishtirganda shu narsa anglashiladiki, G'afur G'ulom Ali Safiy asaridagi epizoddan ijodiy foydalangan va original bir lavha yarata olgan. Demak, mumtoz adabiyotimizdagi tarjima asardari ham o'zbek nasrinig shakllanishida

o'ziga xos maktab bo'lib xizmat qilgan.

3.2. Yozuvchi hikoyalarida folklor an'analari.

G'afur G'ulom o'zining hikoyalarida xalq ijodiyotiga xos tasvir usullari, obraz yaratish xususiyatlari, folklorga xos motivlardan foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratadi. Hikoyalarida ko'proq xalq ijodiga xos obrazlarni tanlab oladi. Ana shunday hikoyalardan bittasi "Mulla Nasriddin Afandi va shayton Alayxullaqna"dir. Ushbu hikoyada adib voqeani ham afsonalar asosida tanlaydi. Ushbu afsonani real hayotga yaqinlashtirib tasvirlaydi. Biz o'sha hikoyani keltirib, undagi iboralarni ta'kidlab ko'rsatamiz. "Kecha bahor ayyomida Mulla Nasriddin afandi o'z yaqin do'stlari –Ahmadali va Jo'rayoylar bilan Oqtosh qishlog'iga sovchilikka borib. Quruq qaytib kelar ekanlar. Do'rmon degan qishloqqa kelganlarida katta bir salqin olchazorga duch kelibdilar. **O'ninchi sinf qizlariday** qator, bir tekis ekilgan olchalar o'rtasidan **birinchi sinf bolalariday** shovqin-suron solib ikki tegirmon suvli ariq sharqirab oqib yotar ekan.

-Kelinglar, shu so'lim erda ozgina dam olaylik, -deпти Jo'rayoy. Uchovlari ariq labiga cho'qqayibdilar. **G'arq pishgan olchalar marjonday** tizilib ularning boshi ustida mayin shabadada tebranib turar ekan. Rad etilgan sovchilikdan hasratlashib, qo'l uzatib olchalardan uzib eb, bekorchilikka ermak danagini ikki barmoq o'rtasida xuddi kim o'zar o'ynaganday "tirs-tirs" narigi qirg'oqqa otib o'tirar ekanlar.

Ana shunda desangiz, xuddi qiyomat-qoyim bo'lganday bo'libdi. Er osma ko'priksay tebranib ketibdi. Er qa'ridan o'kirgandaymi, bo'kirgandaymi gulduros tovushlar chiqibdi. Innaykeyin desangiz, shudgorlab qo'yilgan erning o'rtasidan "g'urru-g'urru-g'umbur"deganday ovoz kelib er qoq yorilibdi. Er yorig'idan **bir bochka neftga o't ketganday** tim qora, quyuq tutun osmonga o'rlab chiqibdi. Ikki terak bo'yimi, uch terak bo'yimi chiqqandan keyin yana quyilib erga cho'ka boshlabdi. **Odam bo'yidan sal balandroq** erda to'xtab shaklga kira boshlabdi. Bir emas-ikkita, katta-kichiklik.

-Ota –bola dev kelyapti"-debdi Ahmadali bitta olchani quchoqlab.

-Rostdan-a?-debdi Jo'rayoy, u ham yana bitta olchani mahkam quchoqlab.

-Haf turlaring, hozir nimaligi bilinadi, -debdi o'rtada o'tirgan Afandi pinagini

buzmay.

Keyin desangiz, haligi bahaybat maxluq kichkinasini bir qo‘lidan etaklab ular tomon kela boshlabdi. Kattasining ikkita parmagajak shohi bor, qorayu uzun shokildagi dumi bor. Kichkinasining shoxi endi bo‘rtgan, bir ko‘ziga katta paxta qo‘yib, ustidan ingichka qora latta bilan boylangan. Buning dumi ham kalta-bir qarich kelar-kelmas.

Bu maxluq uch bahodir o‘g‘lonlarning oldiga kelib:

-Kim bu erda olcha egan?-deb na’ra tortibdi.

-Uchalamiz ham olcha eb o‘tiribmiz, -deпти bemalol Afandi.

-Tirsillatib danak otgan qaysi birlaring?

-Uchalamiz.

-Ha-ha”-deпти o‘shqirib, -bilasanlarmi, men Shayton bo‘laman! Danak otganda ko‘zlaringga qarab otsalaring bo‘lmaydimi! Mana, mening qo‘zichaqlarim yong‘oq tagida o‘ynab yurishgan ekan, bitta danak kelib mana bu kenjatoyimning ko‘zini chiqarib qo‘yibdi.

-Bo‘lmagan gap, -deпти Afandi, -avvalo shuki, sen Shayton emassan. Bizga tuhmat qilyapsan.

-Shaytonman! –deпти **qobonnikiday qayqi tishlarini qirtillatib**. –Asli biz bir otadan egizak tug‘ilganmiz. Otamiz birimizga Rahmon deb, birimizga Shayton deb ism qo‘ygan. Biz –Hasan-Husan o‘g‘illar har kuni mushtlashaverganimizdan keyin otamiz zerikib erni bizga bo‘lib berib qutuldi. Rahmonga urning yuzi-yu, menga urning qa’ri tegdi. Rahmon senlarga xudo bo‘lib qoldi. U ahmoqqa tekkan narsalarni qarang-mana shu o‘tu o‘lanlar, oltita yong‘og‘u bir kaft mayiz, senga o‘xshagan ahmoq bandalar. Men Shaytonga-chi? Erning qa’ridagi butun boyliklar, konlar, xazinalar, o‘t pusqurib turgan qulqonlar... Men hozir senlarni o‘g‘limni ko‘r qilganlaring jazosi uchun er qa’riga –jahannam olib tushib ketaman, dodingni xudoga ayt. –Qah-qah kulibdi.

-Shayton bo‘p bo‘psan, dedim-ku, -deпти Afandi. –Hal ham gap shu, Shayton emassan Shaytonlar ko‘pincha odamlar o‘rtasida yuradi. Sen juda nari borsa biror jahannamdan qochgan piyonista devdirsan.

-I-ya, -deпти boyagi maxluq,-Shaytonligimga ishonmasang qudratimni ko'rsataman. Nima istaysan?

Afandi o'ng tomonida o'tirgan Ahmadaliga qarab:

-Uka shu ablahga bir qiyin ish buyurib daf qilib yubor, -deпти.

-Agar Shayton bo'lsang, -deпти Ahmadali endi o'ziga kelib, -shu jilg'ani orqasiga qaytarib oqiz. Har ikki qulochda bittadan fontanchasi ham bo'lsin.

-Ha-ha-ha! Shu ham gapmi! Mana qarab tur bo'lmasam, -deb qo'tig'idan **titilib ketgan telefon daftarchaday** kitobini olib, filning o'pkasiday lablarini shivirlatib:

-Zumbayk, vili-tili-nadze, zum-baykvi, zum-bayk, va kuf!-deb duo o'qib suvga ufurdi.

Ana shunda dengiz, haligi sho'x-shotir ariqcha avvaliga shippa to'xtadi, keyin g'izillaganicha orqasiga oqa boshladi. Har ikki quloch erda chopayotgan saman otning dumiday fontanchalar qaltirab turardi.

-Qoyilman, -dedi xo'rsinib Ahmadali. –Men Shaytonligingga ishondim. Qani, jahanamingga boshla.

-To'xtab tur, -dedi haligi maxluq, -bular ham ishonsin, hammangni birga qo'shib olib ketaman.

-Qani endi sen, Jo'ravoy uka, o'zing puxtarok bir nima devor, bu to'ng-bo'yinni mot qilib yubor.

-Agar Shayton bo'lsang, -dedi Jo'ravon ux tortganday, -shu eb o'tirgan olchalarimizning tanasi kumushdan, yaproqlari zumraddan, mevalari yoqutdan bo'lib qolsin.

-Vo hax-ha-ha. Shuni o'ylab topdingmi? Mana qarab tur,-qo'ltiq daftarchasini olib "O" harfini qidirdi (olchani), so'ng duo o'qiy ketdi:

-Ko-bakay-yo-chil-ozo, chun-zuhu-digan tunzu... Kuf, suf! –deb olchalarga dam urdi. Ana innaykeyin qarabsizki, haligina mayin elda hilpirab turgan yaproqlardan bodroq qovrilayotgan paytdagi qozonga urilgan kaptar ovozi chiqa boshladi.

Qani endi bironta mevasini uzib bo'lsa! Uch kishilashib arang uchta olchani uzib olib og'g'izlariga solishsa-g'ajir-g'ujur topshinaning o'zi.

-Men boshidayot shayton ekanligingni sezgan edim, -dedi ixrab Jo'ravoy. –

Muncha cho‘zildilaring, qani ketaveraylik. Ahmadali, bo‘lar ish bo‘ldi...

-Qani endi sen nima istaysan? –dedi shayton Afandiga qarab.

-Xo‘p bo‘pti Shayton bo‘lsang Shaytondiansan. Bizning erda, odamlar o‘rtasida ko‘pchilikning aytganiga bo‘ysunish degan muqaddas qoida bor. Bu ikkovi seni Shayton deb tanigandan keyin men nima der edim. Qani yo‘l boshla. Ketsak ketdik-da. ko‘r bo‘lib boqib olarsan...

-To‘xta, -dedi Shayton,-yo‘q, bu yo‘ling ketmaydi. Sen bularning ichida mahmadona makkorroq, so‘zamolroq ko‘rinasan. Er ostiga olib tushsam butun xo‘jaligimning to‘s-to‘polonini chiqarib, odamlarimni yo‘ldan uradiganga o‘xshaysan. Shuning uchun kel, seni ham meni ham armonimiz qolmasin, orani ochiq qilib olaylik. Buyur, nima hunar ko‘rsatay?

-Buyurganimni qilolmasang, nima bo‘ladi, -dedi miyig‘ida kulib Afandi.

-Nima, nima? Mening qo‘limdan kelmaydigan ish ham bor deb o‘ylaysanmi? Men sening xudoyingga o‘xshagan o‘z bandalaridan qo‘rqadigan ahmoq emasman. Men vulqonlar, zilzilalar hukmdoriman.

-Bo‘lmasa yaqinroq kelib menga qulog‘ingni tut, -dedi Afandi.

Shayton bukila kelib qora quyoning terisidek shalpang qulog‘ini Afandiga tutdi. (Ma‘lumki, Afandining oldida bitta tishi yo‘q, shu tish o‘rnidan ko‘pincha “chirt-chirt” tupurib ham yurardi, **to‘rtinchi sinf o‘g‘il bolalariday** uzoqdagi birovni ham shu erdan “Hush-sh-t” deb chaqira olar edi) Ana shu tish orqasidan cho‘zibroq, **egovni arraga surganday** g‘ash keltiradigan qilib hushtak chaldi. So‘ng Shaytondan so‘radi:

-Eshitdingmi?

-Ha, eshitdim. Oddiy hushtak, -dedi Shayton.

-Bo‘lmasa sen ham armonda qolma. Bu qulog‘ingni ham tut.

Shaytonning bu qulog‘iga ham hushtak chalib qo‘ydi.

-Bunisi-chi?

-Bunisi ham hushtak, -dedi Shayton.

-Barakalla, -dedi Afandi, -Shayton bo‘lsang, qani bir qudratingni ko‘rsatib ana shu hushtaklarga sakkitadan tugma qadab ber. (Shayton shu damgacha hushtak tugma qaday olganini hech bir manbadan uchrata olmadik –G‘.G‘).

Shayton hang-mang bo‘lib qoldi. Bu hangamalarga tomoshabin bo‘lib turgan o‘g‘liga yaqinlashib, uning quloq-chakkasiga tortib yubordi:

-Padar la‘nat shaytonvachcha, hamma ayb o‘zingda ekan! Qani yur, qolgan jazoni onangdan olasan...

Yana er osma ko‘prikday silkindi. Bu silkinishda sovchilikday uzoq yo‘ldan quruq qaytayotib horib uxlab qolgan uch og‘ayni cho‘chib uyg‘onib ketdilar”. (“Gilos danagidan tasbehlar”, “Tashkent”, 1963, 32-38-betlar).

Ushbu hikoya shakl va mazmun jihatidan afsona va latifalarga juda yaqin keladi. Ayniqsa unda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari o‘zining originalligi bilan o‘quvchi e‘tiborini tezda o‘ziga jalb etadi.

Uning yana bir hikoyasi **“Hasan Kayfiy”**dir. Bu hikoya ertak usulida yozilgan bo‘lib, muqaddimasi ertaklardagi an‘aneaviy boshlanmalar bilan to‘la mos keladi. Uning qahramonlari ham ertaklardagi singari o‘ziga xos obrazlardir.

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan bo‘ribakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumquq chaqimchi ekan, deganlaridek, osmon tog‘orasining ostida, er tarvuzining ustida bir podshohi azim yashar ekan. Eri shunchalik ko‘p ekanki, unga qarama qishloqlardan bittadan guvalak yig‘ganda ham butun saroy ahliga sag‘ana qurishga etar ekan. Unga qaram fuqarolar shunchalik ko‘p ekanki, agar har bittasidan bittadan qo‘noq olinsa ham, to‘qqiz xumda bo‘za solsa bo‘lar ekan. Lekin podsho kishi boshiga bittadan qo‘noq emas, bir qopdan o‘lpon solishni yaxshi ko‘rar ekan. Podsho kulollarga bitta sopol tog‘ora yasatib, katta machitning eshigiga qo‘yib qo‘ygan ekan. Fuqarolar navbat bilan kelib shu tog‘oraga o‘ltirar ekanlar.

Sol tog‘oraga ketingni, sig‘sa ham bir tanga, sig‘masa ham bir tanga,-degan soliq shu podshoning zamonasida rasm bo‘lgan ekan. Ana shu podsho desangiz, ertadan kechgacha taxtda o‘ltiraverib juda zerikar ekan. Bekorchilikka ermak, deb odamlarni osib ko‘rar ekan, so‘yib ko‘rar ekan, qish kunlarida sovuq suvga pishib ko‘rar ekan, tirnoqlarining tagiga g‘arov yurgizib ko‘rar ekan, baribir ko‘ngli ochilmas ekan. Keyinchalik borib erta bilan tushda kechqurun bir chinnidan ichib turadigan ko‘knorisi ham kayf qilmay qo‘yibdi. Sayroqi qushlar, urishqoq it, xo‘rozlar ham ko‘ziga yomon ko‘rinib qopti. **Urishqoq mast nortuyalarga etik tiktirib kiygizish**,

toshbaqa poygalar ham shuning zamonasida qoidaga kirgan ekan. Keyin, bosh vazirning maslahati bilan kechalari shahar aylanib fuqarolarning siru asroriga, gapiradigan gaplariga ayg‘oqchilik qilib yuradigan bo‘lib qolipti.

U ustiga malla to‘n kiyar ekan, engagiga ot to‘rvadek katta oppoq soqol bog‘lar ekan boshiga laylak uyaday salla o‘rar ekan, qo‘liga uzun yashil tayoq ushlab olar ekan, sarpoychang oyog‘iga uchi qayrilgan baland o‘kchali sag‘ri kavushni ilib ko‘cha aylanar ekan. Uni bu suratda ko‘rgan kishilar:

“Yopiray, bu kishi Xizrmikin, Ilyosmikin, qaysi payg‘ambar ekan, yo xudoimizning ammakivachchalaridan bittasimikin?” deb gumon qilishar ekan.

Kunlardan bir kun avval oqshomda ko‘cha aylanib yurgan podsho **shaharning utta chekkasida bir bo‘yra, ikki bo‘yra eni ekin**-tikinlar o‘rtasida qaqqayib qolgan bir choldevor uyga ko‘zi tushibdi. Katta hovuz o‘rtasida bir palla yong‘oq po‘choqday turgan bu loy tomli kulba to‘rt tomondan tirgovuchlar bilan tiralib qari baytalday arang turar, eski eshigi yuziga yopiq, oyna o‘rniga yog‘langan qog‘oz yopishtirilgan darchasiga ichkarida yoqilgan so‘nik shamning qizg‘ich, bemador shu‘lasi tushib turardi. Kulba ichidan kimningdir randa emagan, do‘rillagan ovozi xirgoyi qilar edi. Podsho eshik tirqishidan mo‘ralab quloq soldi. Qandaydir o‘rta yoshlik bir kishi shoir Hofizning:

“Kishi shikasta-gonem e boda shart barhez,

Boyadki boz binem on yori oshinoro”

(Kemamiz sinib daryo o‘rtasida qolganlarimiz, e shartli el, tezroq esib bizga qirg‘oqqa chiqishga yordam ber. Qoshki o‘sha yoru oshnalarimizni qaytadan ko‘rolsak), degan baytini kuylar edi-da, har dam olganda “Ishqilib aql bilan mehnatim bor bo‘lsin”, deb qo‘yar edi. Taajjubda qolgan podsho eshik taqillatdi.

Ichkaridan:

-Marhamat, kiravering bu eshikning qulfu zanjiri yo‘q, marhamat, -degan ovoz keldi.

Podsho ichkariga kirdi. Uy egasi hangu mang bo‘lib tavoze bilan salom berib kutib oldi. Podshoning savlati uni dovdiratib qo‘ydi shekilli, qanday iltifot qilishni ham bilmay elovsirab:

-Xizmat taqsir, xizmat?-der edi.

-Men senga qo'noqqa keldim,-dedi unga podsho.

-Hay, hay, -dedi uy egasi, **-o'zi kelgan qo'noq-atoi xudo.**

Yugurib borib ko'hna bir sandiq ustiga taxlab qo'yilgan eski o'rin-boshdan bir ko'rpachani olib to'rga yozdi, yonboshiga bir bo'z lo'laburma bolish qo'ydi.

-Qani marhamat, o'z uylaridek bemalol o'ltirsinlar...

Podsho kavushini echib, tayog'ini devolga suyab ko'rsatilgan joyga o'tirdi. Uy egasi o'rtaiga bir kir dasturxon yozdi, fотиha o'qishdilar. Uy egasi shu fotihaga ham **"haq ilohim, aqlimiz bilan mehnatimiz bor bo'lsin"** deb qo'shib qo'ydi.

-Xo'sh, -dedi podsho, -siz kimsiz, nima tiriklik qilasiz?

-Avval o'zlaridan so'rsak bo'lardi, taqsir?-dedi mezbon.

-Men hazrati Xizr bo'laman, jahon kezib xudoning yaqin bandalaridan xabar olib yuraman. Erta namozni Quddus sharifda o'qigan edim, peshinni Istambulda o'qidim, Namozgorni Mashhadda, shomni Tehronda, xuftonni Buxoroda o'qidim-da, sizning shahringizga keldim.

-Hay, hay, -yoqa ushlab, ko'ksiga tupurdi mezbon, -chaqmoqdan ham tez yurarkansiz-a taqsir. **Avliyoga ikki dunyo bir qadam deganlari** shudir-da.

Podsho miyig'ida kulib:

-Xuddi shunday. Shak keltirmay ishonabering. Qani, xo'sh, endi o'zingiz...

-Mening ismim Hasanboy, musallas ichishni yaxshi ko'raman. Shuning uchun xaloyiq menga Hasan Kaydiy degan laqab qo'ygan. Katta Chorsuda yamoqchilik qilaman. Menga kuniga bitta tanga etadi. Shuning uchun batta tangani topguncha ishlayman. Keyin so'zan, bigizni yig'ishtirib, ish qutimni yopaman. Ortiqchasining keragi yo'q. Undan u yog'iga malikaning podnasi uzilgan bo'lsa ham yamaydigan ahmoq yo'q. Ishqilib, taqsir, **aql bilan mehnat omon bo'lsa bo'lgani...**

-Shunaqa deng, -dedi podsho o'smoqchilab. -Xo'sh, bu mamlakatning podshosi kim, adolatli podsholardanmi?

-To'g'ri, to'g'ri, bir xotinining ismi Adolat emish deb eshitganim bor. Lekin mening katta dargohlar bilan ishim yo'q. Men o'z mehnatimni bilaman. TOpgan bir tangamga ikkita non olib birisini oqshom, birisini erta bilan eyman. Yarim qadoq

go'sht, bir bog' o'tin, bir shisha sharob, bitta anor, bitta sham olib hujramga qaytaman. O'shrva qaynataman. (Hujra burchagidagi devor o'choqda qaynab turgan ikchkina tosh qozonni ko'rsatdi.) Anorni mana kosachaga ezib o'rtasiga shamni o'tqazaman. Anor suvining qizil shu'lasiga menga yoqadi, **taqsirginam**. Mana bizga qo'noq bo'ldingiz, birgalashib sho'rva ichamiz. Taqvo qilmasangiz qittay-qittay sharob totinamiz, -deb kulib "Hizr"ga qaradi.

-Biz ham andak totinsak bo'laveradi, chunki **sharobning o'zi harom emas, uning badmastligi harom**, -dedi podsho.

O'rta nonsindirildi, ikki sopol tovoqqa sho'rva suzildi. Bir shisha sharobni ikkovlab sipqardilar. Shirin suhbatda, chala quyon uyqusida tong yorishib borar edi. So'z orasida podsho so'radi:

-Siz, Hasan Kayfiy, hadeb: "Aqlim bilan mehnatim bor bo'lsin", deyaverasiz, biron marta na xudo, na podshoingizni eslamaysiz. Podshohimiz omon bo'lsin, boshimizga soyabon bo'lsin, xudo yor bo'lsin degan duolarni ham gapingizga qo'shib qo'ysangiz bo'lmaydimi?

-Be-e,-dedi Hasan Kayfiy, -shu kichkina ro'zg'onimga ularni aralashtirib nima qilaman. Xudo ham tekinga ish qilmaydi, unga qurbonlik, zakot-ushur kerak, men bularni qaerdan olaman. Podsho bilan xudoning tili bir, biri birini suyaydi. Fuqaro bilan qanchalik ishi bor. Podshoga bo'lsa turli-tuman o'lpon, soliq, dayak, u-bu kerak. **Innaykeyin, podsho degan maxluqqa doim bo'yin egish xush yoqadi**. Mening soliq to'lashga bisoti-bag'alim yo'q. Siz, taqsir, bizning podshoning tog'ora solig'ini eshitmagan ko'rinasiz, -deb hingirab kulib qo'ydi. -Shuning uchun ham mening sig'inadigan narsam -o'z aqlim o'z mehnatim, taqsir. Boshqasidan hech qanday ilinjim yo'q.

-Avvalo shuki, odob kerak: o'z podshoingizni maxluq demang, podsho degani **xudoning erdagi soyasi** bo'ladi-ya!

-Men ham shunday deyapman-da, taqsir soyadan biron narsa umid qilgan kishi ahmoq bo'ladi, -dedi Hasan Kayfiy.

-Astag'firullo, -dedi "Xizr", -bordi-yu, shu bugunning o'zidayoq podshoxingiz: "Mening mamlakatimda yamoqchilik qilish man etiladi, kimda-kim yamoqchilik qilsa

dorga osiladi”, degan buyruq chiqazib qo‘ysa nima bo‘ladi?

-O‘shanda ham aql bilan mehnat salomat bo‘lsa bir evi topilib ketadi, taqsir, - dedi Hasan Kayfiy.

-Ko‘ramiz, qachongacha shu e‘tiqodda tura olar ekansiz,-deb piching qildi podsho. Uning niyati Hasan Kayfiyning og‘zidan “podsho salomat bo‘lsin”, degan so‘zni yulib olish edi. Ammo u bu suhbatda niyatiga etmadi. Tong xo‘rozi qichqira boshlagandan keyin mehmon qo‘zg‘aldi:

-Endi men boray. Erta namozni shahringiz jomeida o‘qishga niyat qilganman.

-Bu oqshom ham mehmon bo‘ladilarmi?- so‘radi Hasan Kayfiy.

-Nega so‘radilar?

-Chunki bu oqshomda siz mening nasibamga sherik bo‘ldingiz. Bugun oqshom ham mening kulbamda qo‘nmoqchi bo‘lsangiz, ikki tanga ishlashga harakat qilaman, non to‘rtta, sham ikkita, go‘sht bir qadoq, sharob ikki shisha bo‘ladi, taqsir, -dedi Hasan Kayfiy.

-Bo‘lmasa albatta kelaman, -dedi kulib podsho.

Hasan Kayfiy podshoni kuzatib qo‘yib hujrasiga qaytdi, qolgan-qutgan nonlar bilan nonushta qildi. Hujrasini yig‘ishtirdi, **quyosh terak boshiga kelganda** har galgidan barvaqtroq ish qutisini ko‘tarib katta Chorsuga yo‘l oldi. Chunki bu oqshom ham uning qo‘nog‘i bor, ikki tanga ishlashi kerak.

Endi shinni bozorni bosib gala qassoblikka etganida Katta Chorsu tomonidan ish qutisini qo‘ltiqlab hovliqib, entikib kelayotgan bir-ikkita do‘sti-yamoqchilarni ko‘rib qoldi.

-Hasanboy, orqangga qayt, Hasanboy, ish rasvo, Hasanboy, orqangga qayt!!

-Kayfiy, **xona-a mo so‘xt farmoyishi oliy hazrat, farmoyishi podshohiy...**

-O‘zi nima gap, o‘zi nima nap, tushuntirsalaring-chi, o‘zi nima gap?!

-Poshshomizdan buyruq chiqib qoldi. “mening mamlakatimda yamoqchilik uyat depti, kim yamoqchilik qilsa, dorga osaman” depti, -dedi kasbdoshlaridan biri – Mamasharif chokdo‘z.

-Him, -debdi Hasan Kayfiy, padar la‘nat Xizrning aytgani bo‘pti-da; yo‘q, qo‘lga tushirolmaydi, hali ham mehnat salomat bo‘lsin...

Yugurib uyiga qaytdi. Buvasidan qolgan bir eski arra bilan olchin to‘qmoq bo‘lguchiydi. Artib-surtib shuni ko‘tardi, beliga teshasini qistirdi. Qo‘shnisining katta tabar boltasini qarz olib, o‘tin bozoriga borib, yolovchi kutib turdi. Omadiga bir yigit kelib, oltita to‘nkani yorib berishni undan so‘radi. Yigitning mo‘ljali bir so‘m bo‘lsam ham, Hasan Kayfiy xizmatiga ikki tanga so‘radi. Yigit arzon mardikor topilganiga quvonib Hasanboyini uyiga olib ketdi.

Hasanboy demaganingiz **o‘q egan arslonday** ixrab-sixrab tushga ham qoldirmay o‘tinlarni yorib, ikki tanga ish haqini oldi. Bozorga qarab yugurdi. O‘rinlatib xarajat qildi: to‘rtta so‘lqildoq, **sedana sepilgan obinon**, ikki shisha sharob, bir qadoq go‘sht, ikkita sham, ikkita anor, ikki bog‘ oq o‘tin...

Kulbasiga qaytib, sho‘rvaga unnab ketdi, dosh qozonning tagiga o‘t qo‘ydi. Kech oqshomdan allavaqt o‘tganda Xizr qiyofasidagi podsho Hasan Kayfiyning eshigiga quloq solar edi, ichkaridan Hasan Kayfiyning odatdagi, **xumga ari qamalganday** g‘o‘ng‘irlagan yallasi eshitilar edi:

-“Kishti shikastigonem, e bodi shart barxez,

Boyatyadki boz binim onyoru oshnoro...”

“Ha, ishqilib, aql bilan mehnat salomat bo‘lsin”.

Xizr eshikni taqillatdi. Hasan Kayfiy:

-Marhamat pirim, marhamat, bu eshikning zanjiru qulfi yo‘q, o‘z uylaridek bemalol kiraversinlar.

Yana kechagidan ziyoda takallufotlar bilan salomu alaykum, alaykum salomdan keyin mehmonni to‘rga o‘tqazdi.

Bu oqshom ikki anorning siqilgan suvi o‘rtasiga o‘tqazilgan bir qo‘sha shamning qizg‘ish shu‘lasi kulbaga ayrim bir fayz berib turar edi.

Sopol kosalarga sho‘rva quyilib, nonlar ushatilib ikki piyoladan sharob ichilgandan keyin:

-Xo‘sh, hazratim, shahrimiz janoblariga manzur bo‘ldimi, qaerlarni sayohat qildilar?-deb so‘radi Hasan Kayfiy.

-Bay-bay-bay, -dedi “hazrati Xizr”, - garchand ikki olam oralig‘ini ming bor sayohat qilgan bo‘lsam ham, bunday shahri azimni uchratmagan edim. Ko‘cha-

ko'ylarini, machitu madrasalarini ayting, ahli fuqarosini ayting, odamlari o'z podsholariga itoatli, hamma erda uning omonligini tilaydilar. Kecha siz aytgan machit oldidagi poshsholik tog'oraga men ham o'tirib ko'rdim. Garchand ketim tog'oraga sig'magan bo'lsa ham, bir tanga solig'ini to'ladim. Koshki edi, er yuzi podsholari ham shunday adolatli bo'lsalar, bay-bay, -dedi. –Qani, xo'sh, o'zlaridan so'raydik.

-Be, taqsir, -dedi Hasan Kayfiy, **-kechagi nafasingizga farishta omin degan ekan.** Katta Chorsuga etar-etmas “yamoqchilarni osaman” degan podshoning buyrug'i chiqib qoldi. **Juftakni to'g'rilab uyimga qaytdim.**

-Xo'sh, xo'sh? –dedi Xizr.

-Keyin arra, bolta ko'tarib o'tinchilik qildim. Ishqilib, aql bilan mehnat salomat bo'lsin ekan. Ikki tanga pul ishlab, mana janobingiz kelishingizga qozonni qaynatib qo'ydim.

-Borakallo, borakallo, -dedi “hazrati Xizr”. –Mabodo ertaga poshsha o'tinchilikni ham man qilib qo'ysa nima bo'ladi?!

-O'shanda ham **aql bilan mehnat salomat bo'lsa bir evi topilib qolar,** taqsirim, -dedi Hasan Kayfiy.

Allavaqtgacha chaqchaqlashib sharobning kayfini surib, **kayf o'rtasida qush uyqusi qilib mudrashib o'ltirdilar.** Tong yorishay deganda mehmon:

-Men bugun tong namozini Xastiimomda o'qishga niyat qilganman, menga javob-deya, o'rnidan qo'zg'aldi. Hasan Kayfiy uni kuzatib, hujrasiga qaytdi. Qumg'on qaynatib, qolgan-qutganlar bilan nonushta qildi. Keyin arra boltalarni ko'tarib **o'tin bozoriga qarab ravona bo'ldi.**

Hasan Kayfiy Ko'mar saroyga hali etgani ham yo'q ediki, kecha o'tin bozorda ko'rgan bir necha o'tinchilar nafasleri og'izlariga tiqilib:

-Hasan aka, qoch-chi-qoch! Boshingni panaga ol! Poshsholikdan, o'tinchilar osilsin, degan buyruq chiqib qoldi, -dedilar.

-Uygami jo'nayversinlar, oxun kishim Kayfiy!-dedi Sodir polvon degan bir uyg'ur arrakash.

-Him, -dedi Hasan Kayfiy, **-obbo xotintaloq Xizr-ey, aytgancha, kecha nafas qilgan edi. Xizr degancha bor ekan-a...**

Shoshilib kulaga qaytdi. Hujraning shiftida, toqilar orasiga qistirib qo'yilgan bir eski mesh bor edi. Uni olib borib buloq suvi bilan toza ishqab yumshatdi, ichini buloq suviga to'ldirdi. Meshni beliga ko'tarib, sho'rva ichadigan ikkita sopol kosani olib, chorshanba kuni bo'lgani uchun qo'y bozorga jo'nadi.

Orqasida bir mesh muzdak buloq suvi, qo'lida kosa, bozor oralab issiq kunda chanqab qolgan bozorchilarga obi xudoyi ulasha boshladi.

-Obi xudoyi, obi xudoyi, tekin suv, hazrati ukkosha bulog'ining suvi, tabarruk suv, muzday suv!..

Chanqovlar kosa-kosa suv ichib, ba'zilar hech narsa bermas, ba'zilar kosagan bir tiyin, ikki tiyin, besh tiyin tashlab ketar edilar. Hash-pash deguncha, meshdagi suv yarim ham bo'lmasdan Hasan Kayfiyning mo'ljalidagi ikki tanga naqdina qo'lga kirdi. Qanchadan-qancha suvsorlarning iltimosiga ham quloq solmay qolgan suvni to'kib tashlab, **meshni buklab qo'ltiqqa urdi, bozorga qarab yugurdi...**

Tun oqshomda qiyofasini o'zgartirgan podsho eshik qoqib kelganda Hasan Kayfiy o'zining qadrdon "kishti shikasta gonem.."i bilan mashg'ul va ora-chora xo'rsinib:

-"Ha, ishqilib, aql bilan mehnat salomat bo'lsin" so'zini aytib sho'rva shopirib o'tirar edi.

Yana kechagi oqshomdagidek suhbat davom etdi, kayf qildilar. O'tirgan joyda unchamo'tcha **ot uyqusi ham qilib oldilar**. Bir-birlari bilan holi ahvol so'rashdilar. Xasti Xizr Tillashixboy machitini maqtab ketdi. Keyin Hasan Kayfiydan hol so'radi. Hasan Kayfiy meshkobchilik qilganini aytdi. Xizr podsho buyruqlaridan **qah-qah urib kulgan bo'ldi**.

-Hay-hay, ko'p adolatli buyruq chiqibdi, podshoingiz salomat bo'lsin, xudo unga yor bo'lsin. Darhaqiqat, shunday ko'rkam **shaharning husniga yamoqsi, o'tinchi, meshkobchiga o'xshagan past kishilar dog' bo'ladi**. Manga qolsa hammasining osilgani ma'qul, -debdi u.

-Him, hov, ma'qul, taqsir, nafasingizdan o'rgilay!-dedi ensasi qotib Hasan Kayfiy.

Bu bedard mehmonni **o'lguday do'pposlab och biqiniga tepib** haydab

chiqarishga Hasan Kayfiyga xos mehmondo'stlik odobi yo'l qo'ymas edi. Tongga yaqin, yana kechqurun kelishga va'da berib, xayr-xo'shlashib mehmon jo'nadi. Bu tong Hasan Kayfiy nonushta ham qilmadi. **Mehmonning qorasi ko'zdan o'chgandan keyin** tikka Buloqboshiga jo'nadi. Bu erdan shahar meshkoblari suv olardilar. Bitta-bitta kelgan meshkoblarga suv oldirmay to'xtatib turdi. Meshkoblar yigirma kishiga etgandan keyin:

-Birodarlar, -deb so'z boshladi Hasan Kayfiy, -shu yigirma kishi ikki tiyindan ikki tanga yig'ib bersalaring sizlarga bir xushxabar aytaman. Ikki tiyinlaringga arziydi. -Meshkoblar bir-birlariga qarashib hamyon kovlab ikki tanga yig'ib Hasan Kayfiyga berishdi. Hasan Kayfiy bafurjalik bilan ikki tangani kissaga solib:

-Endi, birodarlar, **xushxabar shuki, uylaringga tarqayvurlaring**. Hali zamon podsholikdan "meshkoblar dorga osiladi", degan buyruq chiqadi, -deb so'zini tugatmagan ham ediki, podsholikning jarchisi ot o'ynatib ovoz qo'yib kelar edi.

-Poshsholikning farmoyishi: shaharda meshkoblik man qilinadi. Kimda-kim buyruqqa quloq solmay meshkoblik qilsa dorga osiladi!!!

O'z boshining tashvishida qolgan sho'rlik meshkoblar **chilning bolasiday tumtaraqay tarqalib ketdilar**. Hasan Kayfiy bozorga qarab chopdi...

Hasan Kayfiy hujrasidagi bu oqshomgi suhbat ham o'tgan oqshomlardagiday serchaqchaqlik bilan davom etdi.

Yana har galgidek bir-birovlarining kunduz kunlik sarguzashtlarini surishtirdilar. "Hazrati Xizr" bugungi namozlarini Zangiotada ado qilganligini bayon qildi. Ayniqsa, adolatli podshoning meshkoblarni dorga osish haqidagi farmoyishidan g'oyat mamnun bo'lganligini aytdi.

-Qani endi, er yuzida mingta podsho bo'lmasdan bittagina shunday adolatli podshoning yolg'iz o'zi bo'la qolsa,-degan ezgu orzuni bayon qildi. Keyin Hasan Kayfiydan bugungi Buloqboshida qilgan ishlarini aytib berishini so'radi.

-E taqsiri olam, -dedi Hasan Kayfiy, **-aql bilan mehnat salomat bo'lsa**, kishi lol qolmas ekan. Men bugun nima ish qilganimni joni dilim bilan sizga aytib berishim mumkin. Lekin **nafasingizdan cho'chib qoldim**. Boshida men sizning Xizrligingizga ham uncha ishonmagan edim. "Men Xizrman" deganingizda, ha endi **shunchaki**

giyovand, miyasi aynigan choldir-da, deb qo‘ya qolgan edim. Lekin qilgan nafaslaringiz ketma-ket o‘rinlayverganidan Xizr ekanligingizga endi ishonдим. Shuning uchun ham bugun qilgan ishlarimni sizga aytmayman. Aytsam, tag‘in birorta sovuq nafas qilasiz-da, **ishimning pachavasini chiqarasiz**.

-Yo‘q, yo‘q, xudo haqqi, yomon nafas qilmayman, aytavering, na yaxshi, na yomon nafas qilmayman...

-Bo‘lmasa ayta qolay. Bugun men qiziq ish qildim. Kecha oqshom siz-poshsholik meshkoblikni bekor qilsa nima qilasan degandingiz. Ikki-uch tajribadan o‘tkazganim uchun ol-ha, meshkoblarga ham nafas ketdi-ku deb o‘yladim. Sizning ketingizdan Buloq boshiga yugurdim. Meshkobchilarga –bir xushxabur aytaman-deb, ikki tiyin-ikki tiyindan yig‘ib berishini so‘radim, “hozir hammang tarqal, poshshoning buyrug‘i chiqadi” dedim. Aytganimday bo‘ldi. Eb o‘tirgan ziyofatingiz aqlning karomati, meshkobchilarni ogohlantirilganlik evaziga yig‘ilgan ikki tanganing ziyofati. Yana to‘g‘risi janobingizning qutlug‘ nafaslarining ziyofati. Bemalol eb-ichavering, taqsir, ishqilib, bugun tinch o‘tiraylik nafas qilmang.

-Qoyilman, -dedi “Xizr”, -aytgan gapingizda turadigan o‘jar **e’tiqodli odam** ekansiz. Shunday zehi bilan...

-E, bas qiling taqsir, bas! Bu yog‘iga o‘tmang!

-Yo‘q, yo‘q, -dedi “Xizr”, -yomon niyat qilmoqchi emasman, bir ehtimolni aytmoqchiman, yaxshi ehtimol...

-Yaxshi ham kerak emas.

-Yo‘q demaqchimanki, shunday zehn bilan poshshoga navkar bo‘ladigan yigit ekansiz, ehtimol...

-Ana xolos, -dedi Hasan Kayfiy,- **bundan ham rasvo nafas bo‘ladimi**, tag‘in bu ehtimol emish, men ahmoq bo‘lmasam, birinchi kuniyoq sizni hujraga taklif qilarmidim, **eh, attang, attang!**

Hasan Kayfiy bu nafasdan juda ranjidi. Tong otdi, “Xizr” jo‘naguncha **palag‘da tuxum yutganday miq etmay**, jim o‘tiraverdi, uni kuzatib ham qo‘ymadi.

“Xizr jo‘nagandan keyin, yarim soat o‘tar –o‘tmas bir otni minib, yana bir otni etaklagan bir sipohi yigit, qamchi dasta bilan eshikni taqillatib qoldi.

-Hasan Kayfiy, Hasan aka, degan kishi shu erda turadimi?

-Shu erda, shu erda, -deb, Hasan aka tashqariga chiqdi. Qarasa, boshdan-oyoq qurollangan, **mo'ylovi shopday** bir harbiy yigit. Boshida dubulg'a, egnida sovut, bilagida qalqon, qo'lida nayza, elkasida kamon, bir yonboshida o'qdon, bir yonboshda qilich.

-Hasan aka sizmi?

-Men, men bo'laman.

-Siz poshshoning xos navkari bo'lib tayinlandingiz. Mana bu yarog'-aslahalarni kiying, taqining! Ot ham sizniki. Tez bo'ling, men bilan saroyga yuring!

Hasan aka badnafas Xizrni so'ka-so'ka uch pub keladigan temir-tersaklarni kiyinib, taqinib, boyagi sipohi yordamida otga arang minib, saroyga jo'nadilar. Ot o'lgur hurkovich ekan, yo'lda bir zambilg'altak dumalatib ketayotgan kishidan hurkib Hasan Kayfiyni olib qochishga, ko'tarib urishiga oz qoldi.

Saroyda ularni **bosh miroxo'r bilan navkarboshi** kutib oldi. Hasan akaga vazifasini tushuntira boshladilar.

-Siz podshoning xos navkarisiz, -dedi navkaboshi. –Bir qo'lingiz qilich dastasida, podsho o'tirgan taxtning orqasida uni qo'riqlab **shuk turasiz**. Mabodo podshoning hayotiga biror xavf tug'ilsa, kim bo'lmasin **boshini shartga chopib tashlaysiz**. Moyanangiz qirq sakkiz tanga. Oyning o'ttizida olasiz. Ot tagi bilan o'zingizniki, em-xashagi ham sizdan. Erta bilan soat sakkizda kelib, kechqurun beshda ketasiz. Kunduzlari ot poshsholik oxurida bo'ladi. Tush vaqtida saroy ahillariga bir marta shulon qaynatiladi, biror kosa ichishingiz mumkin. **Shulon haqi ichsangiz-ichmasangiz moyanangizdan ushlab qolinadi**. Shu qoidalarga itoat qilmasangiz, **bo'yingiz chopiladi**. Mana bu hujjatga barmoq bosing. (Hasan Kayfiy ichida Xizrni so'ka-so'ka barmoq bosdi.) Ominoblohu akbar. Sizga xudo va xudoning erdagi soyasi bo'lgan adolatli podshoimiz yor bo'lsin. Hasan Kayfiy taxt orqasida qilich qabzasini ushlab ko'zini yummay, uch pud temir-tersak elkasidan bosib qotib turar edi. Ichida: "Yopiray-ey, bu bachchag'ar Xizr mening o'z ishonchimdan aynatmoq payiga tushdi shekilli. Bugun qoidadagi dasturxonni yozish uchun ikki tangani qaerdan olaman? Sharmanda bo'ladigan bo'ldim. Yo aqlim, yo mehnatim, o'zlaring menga madadkor

bo‘llaring”! deyar edi.

Soat to‘rtlardan oshganda podsho haramga kirib ketdi. Hamma sipohilarga, shu qatori Hasan Kayfiyga ham javob bo‘ldi. Darrov borib og‘ildan otni echdi. Boshqa navkarlar yordamida otga minib pichoq bozor tomon yo‘rtib ketdi. Uning **boshiga yaltiroq bir fikr kelgan edi**. Uning bir pichoqchi do‘sti bo‘lib, shuning do‘koniga bordi. Pichoqchi Hasanni buqiyofada ko‘rib, rangi quv o‘chib, dag‘-dag‘ qaltirab hangu mang bo‘lib qolgan edi.

-Qo‘rqma, qo‘rqma” Usti boshim boshqa bo‘lgani bilan men o‘sha o‘zingning Hasaningman. Mana shu qilichimning tig‘i isfixonning bayzo po‘latidan bo‘lgan. Shuni sindirib sotsam olasanmi?

-Jonim bilan olaman.

Hasan qilichni sug‘urib, pichoqchiga uzatdi. Pichoqchi tig‘ni tekshirib egovga solib ko‘rdi.

-Yaxshi ekan, asl ekan.

-Qancha berasan?

-Oltmish tanga.

-Chiqaz pulingni!

Hasan qilichni bo‘g‘zidan to‘rt endi qoldirib, qolganini sumbaga qo‘yib sindirib pichoqchiga uzatdi. Pichoqchi tig‘ni olib, **po‘stak tagiga yashirdi**. Naqdina oltmish tangani Hasanga sanab berdi.

Hasan qoidadagi ikki tangali bozor-o‘charini qilib, kulbasiga qaytdi. Echindi, otining ham ustidagi aslaha, egar-jabdug‘larni oldi. Bog‘dod qo‘shnisini chaqirib chiqdi.

-O‘rtoq dedi, -mana shu ot kechqurun soat beshdan erta bilan sakkizgacha seniki. Er surasanmi, **moyjuvoz haydaysanmi**, aravaga qo‘shasanmi, ixtiyoringda. Ammo har kuni erta bilan yaxshilab to‘ydirib , qashilab sovutib menga topshirasani. Bu harom o‘lgur kunduz poshsholik oxurida boquvda yotadi.

Tu taklif qo‘shnisi jon-jon deb ko‘ndi, otni etaklab olib ketdi.

... Kech oqshomda hazrati Xizr kelganida Hasan Kayfiy hech nima bo‘lmaganday qadrdon yallasini aytib sho‘rva shopirar edi.

Navbatdagiday bemalol, xushkayf, serchaqchaq suhbat davom etar edi.

Xizr bugun qaerda namoz o'qiganini aytdi. Hasan Kayfiydan ahvol so'radi.

-Ovora bo'lasiz, aytilmaydi, taqsir. **Nafasingizni shamol uchirsin, bo'ldi-e!**

-Xudoyi taoloning birligi hurmati, podshomizning shafqat va mehribonliklari hurmati, **churq etgan nafas qilmayman**. Faqat menga mana bu qoziqlarda osig'lik qalqon, qilich, dubulg'alarning egasi kimligini aysangiz, bas.

-Qasam iching, hazrati Xizr!

-Nafas qilsam, **kalomullo ursin!**

-Bo'lmasa ayta qolay, bu aslahalar kecha qilgan nafasingiz natijasi. Men podshoga navkar bo'lib qoldim.

-Qutlug' bo'lsin, muborak bo'lsin, xo'sh bu kungi ziyofatning xarajati qaerdan bo'ldi, moyanani naqda berar ekanlarmi?

Hasan Kayfiy qilich voqeasini yashirmay aytdi. Keyin qilichni qiziqdan olib:

-Endigi qolgan ellik sakkiz tangani shiftga qistirib qo'ydim. Moyana chiqquncha har oqshom ziyofat, taqsir. Qilichga bo'lsa taxtadan tig' yo'nib ulab qo'ydim. Mana ko'ring...

Qilichni sug'uribko'rsatdi. Darhaqiqat, tig'ning singan qismiga taxtadan tig' qilib, juda hunarmandlik bilan ulanga edi.

-**Tasanno, -dedi Xizr**, -ammo...

-So'z qila ko'rmang, so'z qila ko'rmang, qasam ichgansiz.

-so'z ham qilmayman, nafas ham qilmayman. Ammo ehtimolimni aytaman.

-**Ehtimolingiz qursin**, qani ayting-chi?

-Mabodo, ertaga podsho birovga g'azab qilib, sizga: "Hasan, bu gunohkorning kallasini chop!" desa, unda nima bo'ladi.

-**Ming la'nat, ishning atalasi chiqdi, Xizr bo'lmay xinzir bo'ling**Yo Tag'in **qasam ichgan edi-ya bu xumsa**. Ha, mayli, bo'lar ish bo'ldi, o'shanda ham aql bilan mehnat salomat bo'lsin. Bir iloji topilib qolar...

Bugun ham Hasan Kayfiy taxt orqasida qo'li qilichning dastasida qaqqayib turar edi.

Shulon vaqti yaqinlashib qolganida poshsho bir bosh vazir o'rtasida janjal chiqib

qoldi. Bosh vazir Oblabaytal qishlog'iga tushgan o'lpon haddan tashqari ortiq bo'lganligini, kamaytirish zarurligini aytar edi. O'jar podsho qaytaga qaysarlik qilib o'lponning ikki baravar oshirilishini buyurar edi. Vazir bilan podsho o'rtasida oldi-berdi gap kuchayib ketdi. G'azabiga chidolmagan podsho orqasiga qarab:

-Hasan, vazirning, **bu ablahning** boshini chop!-deb amr qildi.

Hasan yugurib borib vazirning ikki qo'lini orqasiga bog'ladi. Podshoning oldiga tiz cho'ktirdi.

-Podshohim, bir emas, o'n vazirning boshini oyog'ingiz tagida **sadaqaday yumalatishga** tayyorman. Ammo bu sho'rlikning bola-chaqasi ko'p. Innaykeyin, Olabaytal qishlog'ida mening ammam bor. Ko'p borib turaman. Vazirning gapi to'g'ri, qishloqlarning ahvoli nochor, xalq och, yalang'och. Asli o'lpon olinmasa ham bo'ladi.

-**Padar la'nat, navkar**, -dedi baqirib podsho. -O'z podshongga maslahat berishga senga kim huquq berdi?! Vazirning boshini hozir chop!! Bo'lmasa o'zingning boshingni kestiraman!

-Mening uchun bitta **vazirning boshini chopish chumchuq so'yishdan ham oson**. Ammo xudo bilan maslahat qilib olay.

Hasan Kayfiy ko'kka yuzini tutdi, qo'lini munojotga ko'tardi:

-Ey bor xudoyo! O'zing ko'rib turibsan, hukm sening hukming. Men hozir vazirning boshini chopishim kerak. Agar podsho haq bo'lsa, qilichim qilichligicha qolsin. Agar vazir haq bo'lsa, qilichimning tig'ini po'lat emas, taxta qilib qo'y! Oblohu akbar, -deb qilich sug'urdi...

Qilichning tig'i go'yo taxtaga aylanib qolgan edi. Hasan Kayfiy qilichni ko'tarib:

-Adolatli xudoyimdan aylanay, vazir haq ekan, mana podshohim, o'zingiz ko'ring...

Hasan Kayfiy taxt tomonga o'girilib qarasa taxtda podsho emas, Hizr o'ltiribdi. (Podsho yasama oq soqolini iyangiga bog'lab olgan edi)

-Ey, ha, -dedi Hasan Kayfiy, -**Xizr ham o'zim, podsho ham o'zimman desangiz-chi, tilimiz bitta deng, qo'sha-qo'sha karomatlardan sezingirgan edim-a**,

taqsir...

Shunday qilib, podsho Hasan Kayfiyni o'z ishonchidan aynita olmadi. Hasanga o'z xohishini o'tkazolmadi. Uni saroydan haydab chiqardilar. Mana endi Hasan Kayfiy ham umrining oxirigacha o'z aqli, o'z mehnati soyasida farog'atda hayot kechirmoqda.

Ertakdagi Hasan Kayfiy obrazi real shaxs sifatida tasvirlansa ham uning faoliyatida o'ziga xos tantilik, afandinamo harakatlar tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Yozuvchining asosiy urg'usi o'sha obrazning imon va e'tiqodi mustahkam ekanligini ko'rsatishdir. Hikoyalarning to'la matnini keltirishimizdan maqsad shuki, ushbu asarlar xalqona iboralar, maqollar, matallar, frazeologik iboralarga shunday boyki, ulardan ayrim misollar obkelib masalaning mohiyatini ochish qiyin bo'ladi. Ularning til xususiyatlari shunday mohirona ishlanganki, matndagi har bir jumla badiiy- estetik jihatdan yuqori saviyada namoyon bo'lib turadi.

Uchinchi bobda qarab chiqilgan masalalar bo'yicha quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. G'afur G'ulom nasri xalq ijodiyoti an'alarining realistik tasvir bilan omuxtalashtirilgan o'ziga xos bir ko'rinishidir. Adib nasri bayon qilish uslubi, obrazlari, voqealar tizimi jihatidan ertak, afsona va rivoyatlarga xos tasvirni esga soladi.

2. Yozuvchining "Shum bola", "Tirilgan murda" kabi asarlari voqealarning tanlanishi, bayon qilinishi, obrazlarning faoliyati jihatidan ertaklarga juda yaqin turadi. Xususan, "Shum bola", qissasi "Ming bir kecha" ertaklaridagi motivlar bilan o'xshashlik kasb etadi. O'z navbatida Ali Safiyning "Latoyifut tavoyif" asaridagi ayrim voqealarga juda yaqin keladi.

3. G'afur G'ulomning qator hikoyalari xuddi ertaklar kabi "Bor ekanda, yo'q ekan"... shaklidagi muqaddima bilan boshlanadi. "Hasan Kayfiy" hikoyasi bunga misol bo'la oladi. Bu hikoyadagi obrazlar ham xuddi ertakdagiday harakat qilishadi. "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" hikoyasi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Bu asardagi motivlar "Kitobi dadam Qo'rquq" eposining "Dali Domrul" shoxobchasidagi Dali Domrul va Azroyil munozarasiga juda o'xshaydi.

4. Binobarin, buyuk adib xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotni mukammal

bilgan ijodkordir. U har bir asarida xalqqa xos bo'lgan iboralar va o'z navbatida turli motivlardan mohirlik bilan foydalanadi, ularga ijodiy ishlov beradi. Mumtoz adabiyotdagi motivlarni qayta ishlab, sayqallashtiradi. Natijada asarning badiiy-estetik saviyasi yuksak darajaga chiqib, o'qimishliligi ortadi.

Bu holat adib asarlarining umrboqiyiligini ta'minlaydi.

Umumiy xulosalar

1. Gʻafur Gʻulom keng qirrali ijodkor boʻlib, u oʻz navbatida shoir, nosir, olim, jurnalist, dramaturg sifatida oʻzbek adabiyotida alohida oʻrin tutadi.

Gʻ.Gʻulom ayni paytda folklorshunos hamdir. U folklor ijodkorlari, folklor janrlari haqida eng muhim masalalarni kun tartibiga qoʻydi va ularni ilmiy jihatdan tahlil qildi.

2. Adib baxshilar, ertakchilar, askiyachilar, loflar haqida muhim maʼlumotlarni yozib qoldirdi. Shu bilan birga ularning repertuaridagi ayrim asarlarning toʻla matnini ham avlodlarga meros sifatida yozuvga muhrladi. Uning bu sohada bildirgan nazariy fikrlari hozirda ham oʻz kuchini yoʻqotgan emas.

3. Shoir oʻz sheʼriy asarlarida xalq ogʻzaki ijodi anʼanalaridan mohirlik bilan foydalanadi. U tashbeh tanlaganda xalq soʻzlashuv tilidagi ommaviy soʻz va iboralardan, frazeologik birikmalardan keng doirada foydalanadi. “Soʻqa bosh”, “Shamgʻalat”, “tangʻish”, “mizgʻish”, “pistoqi” kabi xalqona soʻzlarni keltirib, sheʼrdagi asosiy maʼnoni chuqur yoritish imkoniyatini yaratadi.

4 Sheʼriyatda folklorizmlarga murojaat qilish adib ijodida asosiy oʻrinni egallaydi. Uning sheʼrlarida olqishlar, qargʻishlar, maqol va matallar, idiomalar koʻplab uchraydi. Hatto ayrim sheʼrlari dostonlar boshlanmasiga, baʼzilari esa ertaklarga xos”Bir bor ekan” tarzidagi muqaddimalar bilan boshlanib ketadi. Bu uslub oʻquvchilar eʼtiborini tezda jalb qilishda muhim rol oʻynaydi.

5 Yozuvchining nasriy asarlarida xalq ogʻzaki ijodiga xos tasviriylilik ayniqsa yorqin namoyon boʻladi.

Adibning “Shum bola” qissasi oʻziga xos ertakiy bayon ustuvorlik qiladi. Uning tilida “It quvgan tushgiday”, “Danak topgan tentakdek”, “Uyat ish qilib qoʻygan boladek”, “Xumga tushgan sichqonday” singari quyma iboralar, frazeologik ifodalar tez-tez koʻzga tashlanib turadi.

6.Gʻ.Gʻulom bu asarini yozishda koʻplab folklor asarlari va yozma adabiyotdagi rivoyatlardan ijodiy foydalangan. Undagi lavhalar “Ming bir kecha”dagi ertaklarga ham oʻxshab ketadi. Ayrim lavhalar oʻzbek xalq ertaklari motiviga yaqin.

Adib bu asarni roʻyobga chiqarishda XV asrda Hirotda yashab oʻtgan Ali Safiyning “Latoyifut tavoyif asaridan ham ilhomlangan. Maʼlumki, bu asarni Komil

Xorazmiy “Latoyifuz-zaroyif” nomi ostida tarjima qilgan.

7. Yozuvchi o‘zining hikoyalarida ham xalqqa xos ertak va rivoyatlarni istifoda etdi. Uning “Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi”, “Mulla Nasriddin afandi va Shayton Alayhulla’ia”, “Hasan Kayfiy” kabi hikoyalar bunday olib qaraganda afsona va ertaklarning qayta ishlangan variantlariga o‘xshab ketadi. “Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” hikoyasi “Kitobi dadam Qo‘rqut” asaridagi ayrim motivlarga juda mos keladi.

“Hasan Kayfiy” hikoyasi esa to‘g‘ridan to‘g‘ri ertak zachini (Bor ekanda yo‘q ekan...) bilan boshlanib ketadi. Uning qahramonlari ham ertaknamo shaxslardir.

8. Umuman olib qaraganda adib ijodida folklorizmlarning oddiy ko‘rinishlari bilan birga sintezlashgan xillari ham uchraydi. Oddiy folklorizmlarning uning she‘riyatida namoyon bo‘lsa, sintezlashgan folklorizmlar qissa va hikoyalarida namoyon bo‘ladi. “Mulla Nasriddin va Shayton Alayhulla’na”asari afsona tarzida xalq orasida ham uchraydi.

Xullas, G‘.G‘ulomning folklorga xos an‘analardan foydalanishi uning asarlarining xalqchilligi va umrboqiyiligini ta‘minladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 29-avgust, 1997-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 29-avgust 1997-yil.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari.

1. “Magistratura to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2007-yil, 29-dekabrda 269-sonli buyrug‘i bilan.
2. Ta’lim sohalari bo‘yicha “Eng yaxshi bitiruv malakaviy ishi magistrlik dissertatsiyasi” Respublika tanlovi to‘g‘risidagi Nizomiy tasdiqlash to‘g‘risida.
3. Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2008- yil, 18-aprelda 104-sonli buyrug‘iga 1-ilova.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10-sentabrda 190-sonli qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. –T.: “O‘zbekiston”, 2008. –B. 29-30.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura-Toshkent: O‘zbekiston, 1993. –B 174.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2009 yil, 3 iyul.
2. Akbarov A. Shoirning hayoti. –T.: “Adabiyot va san’at”. 1978.
3. Abrorov Axbor. G‘afur G‘ulom povestlarining sujet va kompazatsiyasi. – 1973. –№4. –B.9.
4. Barakaev R.G‘.G‘ulom va o‘zbek bolalar she’riyati. –B.28-32.
5. Vohidov R. Mahmudov M. G‘.G‘ulom maktublari. //O‘zbek tili adabiyoti 2003.

- №2, –B.41-44.
6. Valixo‘jaev Botir. G‘afur G‘ulom. –Navoiyshunos. -1983. -№4. –B.8.
 7. Yoqubov H.G‘afur G‘ulom (hayoti va ijodi) T.: “Adabiyot va san‘at” 1959. – B.138.
 8. Yoqubov H.G‘afur G‘ulom poeziyasida milliylikva internatsionallik. -1973. №4. –B.9.
 9. Zohidov Vohid. O‘zbek xalqining donishmand shoiri (G‘.G‘ulom haqida) -1973. №4. –B.3.
 10. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994.
 11. Karim Naim. Faylasuf shoir. (G‘afur G‘ulom ijodi haqida) -1993. -№ . –B.3.
 12. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom. // O‘zbek adabiyoti tarixi, II tom-T.; Fan, 1971. B.267.
 13. Meli S. Komik katirsis // O‘zbek tili adabiyoti 2003. №2, –B.19-28.
 14. Mirhaydarov H., Abdiqulov T. Adabiyot va folklor //O‘zbek tili adabiyoti 2003. №2, 1975. –B.50-53.
 15. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom. // O‘zbek adabiyoti tarixi, II tom-T.; Fan, 1971. B.267.
 16. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. –T.: 1963.
 17. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. –T.:1966.;
 18. Mamajonov S.Uslub jilolari. –T.: 1972.
 19. Mamajonov S. Teran adabiyotshunos. // G‘.G‘ulom. –Adabiy-tanqidiy maqolalar. 1-tom. –T.: “Fan”, 1971. –B.3-33.(430)
 20. Mamajonov S.Shoir va zamonaviylik. –T.: 1936.
 21. Mamajonov S. Uslub jilolari. Toshkent.: 1972.
 22. Nazarov B. XX asr va G‘.G‘ulom // O‘zbek tili adabiyoti 2003. №2, -B.3-13.
 23. Nurmanov A. G‘.G‘ulomning hozirgi o‘zbek tilining shakllanishidagi xizmatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2003. №5. -B.33-36.
 24. Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. –Toshkent.: 1981.
 25. Ochilov E.G‘.G‘ulom va Sharq adabiyoti // O‘zbek tili adabiyoti 2003. №2, - B.13-19.

26. Rahimjonov N. G'.G'ulom ijodida ijtimoiy lirika. // O'zbek tili va adabiyoti. 2004. №4. –B. 23-25.
27. Ro'zimboev S. G'.G'ulom. –adabiyotshunos. // G'.G'ulom –Buyuk adib (maqolalar to'plami) Urganch. 2003. –B. 3-5.
28. Ravshanov Abdumajid. G'afur G'ulomning adabiyotshunoslik faoliyati. -1973. №. B.26.
29. Sodiq S. G'.G'ulom haqida yangi so'z. // O'zbek tili va adabiyoti. 2005. №1. –B 103-105
30. Turdiev Sh. G'.G'ulom va tatar adabiyoti // O'zbek tili adabiyoti 2003. №2, - B.32-38.
31. Tursunov J. Shum bola bilan yangi uchrashuv // “Sharq yulduzi” jurnali, 1963. 147-bet.
32. To'rabekova S. G'afur G'ulom poeziyasining tasviriy vositalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1960.
33. To'rabekova S. G'afur G'ulom poemalaridagi ba'zi tasviriy vositalari haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1962, 1-ston.
34. Tursunov J. Shum bola bilan yangi uchrashuv // “Sharq yulduzi” jurnali, 1963.
35. Choriev B.G'afur G'ulom poeziyasining leksik xususiyatlari. // O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 1-ston.
36. Choriev B.G'afur G'ulom she'riyati tili. –Toshkent.: 1990.
37. Sharafiddinov O. Xalq baxtining otashin kuychisi. G'.G'ulom 10-tom, T.: Adabiyot va san'at, 1978. –B.180-229.
38. Shukurov N.G'.G'ulomning lirik poeziyasidagi mahorati. –T.: 1966.
39. Shukurov R.G'afur G'ulomning tildan foydalanish mahoratiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1959, 4-ston.
40. Shukurov R.G'afur G'ulomning frazeologizmlardan foydalanishdagi mahorati // SamDU asarlari, 106. –Samarqand, 1961.
41. Shukurov N.G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati. -Toshkent.: “Fan”, 1966.

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Shukurov N. Uslublar va janrlar. –Toshkent.: 1973.
2. Eshchanova G., Otajonova S. G‘afur G‘ulom va xalq og‘zaki ijodi. // G‘.G‘ulom –Buyuk adib (maqolalar to‘plami) Urganch. 2003. –B. 5-8.
3. G‘afur G‘ulom. Asarlar, III tom.-T.; “Adabiyot va san’at”, 1972. B. 432.
4. G‘.G‘ulom, asarlar, VIII tom.- T.: “Adabiyot va san’at”, 1976. –B. 502.
5. G‘.G‘ulom, asarlar, IX tom.- T.: “Adabiyot va san’at”, 1977. –B. 392.
6. G‘.G‘ulom, asarlar, X tom.- T.: “Adabiyot va san’at”, 1978. –B. 264.
7. G‘.G‘ulom. Muqimiyshunos. // O‘zbek tili adabiyoti 2003. №2, -B.38.
8. G‘.G‘ulom “Gilos danagidan tesbehlar”, Badiiy adabiyot nashriyoti –T.: 1965.
9. G‘.G‘ulom –Buyuk adib (maqolalar to‘plami) Urganch. 2003. –B. 56.
10. G‘.G‘ulom. Shum bola. –T.: 1959.
11. G‘.G‘ulom. Farzandlarimga. (Nashrga tayyorlovchi. –V.Ro‘zmatov) –T.: 1983.
12. G‘.G‘ulom hayoti va ijodi // kitob-albom. –Toshkent.: “O‘qituvchi”, 1970.
13. G‘afur G‘ulom. Muqanna (asarlar to‘plami). XI-XII tomlar. –Toshkent. 1989.
14. G‘.G‘ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. 2-tom. –T.: “Fan”, 1973. –B.230.
15. Xalk ijodi boyligidan // Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: 1973.
16. H.Yoqubov. G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi. -T.: 1959. –B.106.
17. H.Olimjon 5-tom (Maqolalar, tanqid). –T.: Adabiyot va san’at. 1972. –B.254-275.

Annotatsiya

G'afur G'ulom va xalq og'zaki ijodiyoti

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ishning asosiy masalalari va farazlari, mavzuning o'rganilishi, metodologiyasi va metodlari, ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, natijalarning e'lon qilinishi va tuzilishi haqida so'z yuritiladi.

I BOB “G'afur G'ulomning folklorshunoslik faoliyati” deb nomlanadi. Uning birinchi faslida G'afur G'ulomning xalq baxshilari, ertakchilari askiyachilari, masharabozchilari faoliyati haqida olib borgan tadqiqotlari tahlil etiladi. Bobning ikkinchi faslida G'afur G'ulomning folklor janrlari haqidagi ilmiy ishlari xususida so'z yuritiladi.

II Bob “G'afur G'ulom she'riyatida folklor an'analari” tarzida nomlangan bo'lib birinchi faslida Shoirning xalq iboralaridan foydalanishdagi mahorati lirik asarlari misolida yoritib beriladi. Ikkinchi faslida adib she'riyatida qo'llanilgan maqol, matal, turli frazeologik iboralar, uchiriq so'zlar va olqish hamda qarg'ashlardan foydalanishdagi mahorati tahlil etiladi.

III Bob- “G'afur G'ulom nasri va xalq og'zaki ijodiyoti”da birinchi fasl “Shum bola”qissasi va xalq ijodiyoti” nomi ostida berilgan bo'lib, unda qissadagi xalqona iboralar, ertaklarga xos motivlar, xalq ijodiga xos bo'lgan rang-barang uslublar, latifalarga xos tasvir usullari ochib berilgan. Ikkinchi faslida yozuvchi hikoyalaridagi folklor an'analari adibning turli yillarda yozgan kichik hikoyalaridagi ertakona tasvirlar misollar vositasida yoritiladi.

Dissertatsiyaning oxirida umumiy xulosalar berilgan bo'lib, unda ishning boblarda qo'yilgan muammolar umumlashtiriladi.